



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

# **ARXELOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV – USLUBIY  
MAJMUA**

**2025**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“Arxeologiyaning dolzarb muammolari”**

**MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV–USLUBIY MAJMU‘A**

**TOSHKENT – 2025**

**Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.d., prof., F. Ochildiyev,  
O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.f.d., katta o‘qituvchi  
Y. Muxamedov

**Taqrizchilar:** O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.d., dots.,  
B.Ubaydullayeva,  
O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.d., prof.,  
R.Suleymanov

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2024- yil “29” noyabrda 4-sonli bayonnoma).*

## MUNDARIJA

<b><u>I. ISHCHI DASTUR</u></b> .....	5
<b><u>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI</u></b> .....	16
<b><u>III. NAZARIY MATERIALLAR</u></b> .....	21
<b><u>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u></b> .....	62
<b><u>V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT</u></b> .....	73
<b><u>VI. MUSTAQIL TA‘LIM</u></b> .....	76
<b><u>VII. KEYSLAR BANKI</u></b> .....	77
<b><u>VIII. GLOSSARIY</u></b> .....	79
<b><u>XI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI</u></b> .....	83

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, arxeologiyaning dolzarb muammolarini o‘rganish va hal etish, antropologiya va etnologiya fanlarini o‘zaro bog‘liqligini asoslash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

**“Arxeologiya, antropologiya va etnologiya”** yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

**“Arxeologiya, antropologiya va etnologiya”** yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;

- O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida” hamda “Innovatsion faoliyat to'g'risida” Qonunlarini;

- O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;

- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;

- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;

- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;

- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;

- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta‘lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta‘lim tizimiga tegishli qarorlarini;

- Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligining ta‘lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;

- Davlat ta‘lim standartlari, ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;

- oliy ta‘lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;

- ta‘lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;

- raqamli ta‘lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;

- raqamli ta‘lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;

- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;

- raqamli ta‘lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;

- meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;

- zamonaviy ta‘lim tizimida sun‘iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;

- ta‘limda sun‘iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;

- bilimlarni sinash va baholashning aqlli tizimlarini;

- jahonda oliy ta‘lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;

- zamonaviy ta‘limning global trendlarini;

- inson kapitalining iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta‘limning yoshdagi ahamiyatini;

- oliy ta‘limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;

- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;

- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;

- universitetlarning zamonaviy modellarini;

- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;

- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;

- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;

- innovatsion ta‘lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;

- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;

- kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;

- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;

- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion,

akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;

- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;

- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;

- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;

- arxeologiyaning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish mexanizmlarini;

- insoniyatning paydo bo'lishi muammolarini;

- o'rta Osiyoning ashel davri arxeologik yodgorliklarini;

- o'rta Osiyoning neolit davri lokal madaniyati majmualarini;

- so'ngi bronza va ilk temir davrlari etno-madaniy jarayonlarini;

- antropologiyaning fan sifatida vujudga kelishi tarixi va yo'nalishlarini;

- inson, madaniyatlar hamda ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va tafovut jihatlari;

- irqning vujudga kelishi hamda tarixi, tashqi jismoniy belgilar xususiyatlari va shakllanish bosqichlarini;

- madaniy (ijtimoiy) antropologiya, insonlar orasidagi guruh munosabatlar va ijtimoiy jarayonlarni;

- paleolit davri bosqichlarini;

- kulolchilik va to'qimachilikning paydo bo'lishini;

- O'rta Osiyoda so'ngi bronza va ilk temir davri ekologiyasini;

- ilk davlatlar shakllanishining arxeologik belgilari (aholi punktlar sonining oshishi ibodatxona, saroylar va oddiy uy-joylar, boy va oddiy qabrlar, hunarmandchilik va ayrboshlashning jadal rivojlanishi)ni;

- ijtimoiy antropologiyaning ob'ektini;

- madaniy antropologiyaning asosiy vazifasini;

- akkulturatsiya, «g'arblashtirish» «etnotsid», «tabiiy va majburiy» assimilyatsiya, uyg'unlashuv va postmodern masalalarini;

- etnologiyaning nazariy muammolari va ilmiy maktablarini *bilishi* lozim.

### **Tinglovchi:**

- "O'zbekiston-2030" strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;

- O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;

- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;

- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;

- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;

- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;

- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;

- pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;

- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;

- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;

- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;

- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;

- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;

- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;

- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;

- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;

- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;

- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;

- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;

- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;

- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;

- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;

- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;

- o‘rta Osiyo arxeologiyasining asosiy muammolarini aniqlashda zamonaviy metodlarning ahamiyatini tahlil etish va baholash;

- dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaliklari taraqqiyotini o‘rganish;

- tosh qurollariga ishlov berish texnikasining takomillashtirish;

- o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllariga o‘tish sifatini baholash;

- etnografiya va etnologiyaning ijtimoiy (madaniy) antropologiyaga bog‘liqligini yoritib berish;
- madaniy antropologiyaning asosiy vazifasini o‘rganish;
- etnografiyada dala ekspeditsiyalarini olib borish uchun ishlab chiqilgan umumiy metodik va asosiy amaliy usullaridan foydalanish;
- kishilik jamiyati va madaniy taraqqiyotida metallning tutgan o‘rnini izohlash;
- O‘rta Osiyoning ilk temir davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy hayotini o‘rganishdagi ahamiyatini izohlash;
- xalqaro ilmiy shartnomaning asosiy bandlaridan foydalanish;
- zamonaviy etnologiyaning Yevropa va Shimoliy Amerikadagi holatini tahlil etish va qiyoslash;
- antropologiyaning yo‘nalishlari: madaniy, arxeologik (tarixgacha davr antropologiyasi), biologik yoki jismoniy, lingvistik antropologiyaganing o‘ziga xos xususiyatlari va ularga ta’sir etuvchi omillar faoliyatini o‘zlashtirish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;

- ta'limdagi sun'iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
  - professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari tahlil etish;
  - innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
  - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
  - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
  - o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
  - tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
  - ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
  - talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
  - talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
  - an'anaviy hamda zamonaviy jamiyatlardagi ijtimoiy tuzilmalardan samarali foydalanish;
  - Neolit inqilobi va kishilik jamiyati taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish;
  - inson va madaniyat munosabatlarni o'rganish;
  - madaniyatlarning ma'lum tarixiy davrdagi ijtimoiy tashkilotlarining kelib chiqishi (genezisi), tuzilishi (morfologiyasi) va taraqqiyotini (dinamikasi va xilma-xilligi)ni o'rganish;
  - tosh qurollariga ishlov berish texnikasining takomillashishini tahlil etish;
  - shahar-davlat va shahar-hududiy davlat markazi to'g'risidagi ilmiy qarashlarni izohlash;
  - O'zbekistonning mustaqilligi davrida arxeologiya fanining rivojlanishini o'rganish va baholash;
  - xalqaro arxeologik ilmiy shartnomalar tuzish;
  - O'rta Osiyoning ilk temir davri arxeologiya majmualarini davrlashtirish muammolarini o'rganish;
  - etnografiyada dala ekspeditsiyalarini olib borish uchun ishlab chiqilgan umumiy metodik va asosiy amaliy usullarni qo'llash;

- etnologiyaning tadqiqot usullaridan foydalanish *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;

- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tadbiiq etish;

- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;

- “O'zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;

- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini ochib berish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanilishi lozim bo'lgan xorij tajribasidan samarali foydalanish;

- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiiq etilishini tashkil etish;

- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;

- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiiq etish;

- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'limdagi ta'sirini ochib berish;

- sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;

- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;

- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tatbiiq etish;

- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;

- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari yoritib berish;

- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiiq etish;

- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni

yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'limiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- ilk ashel davrida insoniyatning yevrosiyoga tarqalishini yoritib berish;
- qo'lda yasalgan naqshli sopollarning qayta jonlanish usullaridan foydalanish;
- xalqlarning madaniy taraqqiyotiga zamonaviy axborot vositalari va kommunikatsion jarayonlarning ijobiy va salbiy ta'sirini ochib berish;
- qurg'oqchilik iqlim sharoitiga ega janubiy hududlarda sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi hajmini hisoblash;
- metall qurollarining jamiyat iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sirining asosiy tamoyillari bilan tanishish;
- Neolit davri tabiiy iqlim sharoitini yoritib berish;
- xalqaro arxeologik shartnoma tuzishning ilmiy asoslaridan foydalanish;
- etnografiya va etnologiyaning ijtimoiy (madaniy) antropologiyaga bog'liqligini izohlash;
- madaniyatlarning ma'lum tarixiy davrdagi ijtimoiy tashkilotlarining kelib chiqishi (genezisi), tuzilishi (morfologiyasi) va taraqqiyotini (dinamikasi va xilma-xilligi) tahlil qilish;
- O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari arxeologiyasi tarixshunosligini o'rganish;
- insonning biologik turlanishi vaqt va makon iznida o'rganish, evolyusiya, irsiyat, insonning takomillashuvi hamda rivojlanib borishi muammolarini hal etish;
- O'rta Osiyo arxeologiyasining asosiy muammolarini aniqlashda zamonaviy metodlarning ahamiyati ochib berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiflar**

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Arxeologiyaning dolzarb muammolari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari”, “Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar

to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta‘lim sifatini ta‘minlashda baholash metodikalari” ,“Antopologiya va etnologiya fanlarini o‘zaro bog‘liqligi” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta‘lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar falsafiy fanlarni, jumladan mantiqni o‘qitish jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlarini va bu boradagi ilg‘or tajribalarni o‘rganadilar, hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog‘lash, ularni amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	<b>Arxeologiyaning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish mexanizmlari.</b> O‘rta Osiyoning tosh va paleometall davri jamoalarining turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo‘jalik iqtisodiy asoslari, ma‘naviy kechinmalari, madaniy aloqasi va madaniyatlar genezisi	4	2	2	
2.	<b>O‘rta Osiyoning tosh va paleometall davri arxeologiyasi masalalari.</b> O‘rta Osiyo ilk temir davri yodgorliklarining umumiy tasnifi. Asosiy yodgorliklar va ularning moddiy madaniyati	10	2	2	6
3.	<b>O‘rta Osiyoning antik davri arxeologiyasi masalalari.</b> O‘rta Osiyoning antik davri arxeologiyasining zamonaviy o‘rganish bosqichi. Asosiy yodgorliklar. Tadqiqotlar natijalari va muammolar	4	2	2	
4.	<b>O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologiya sohasida xorij bilan ilmiy hamkorlik masalasi.</b> O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asr arxeologiyasini o‘rganishning asosiy masalalari: natijalar – yutuqlar – muammolar	10	2	2	6
	<b>Jami:</b>	<b>28</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>12</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-MAVZU. ARXELOGIYANING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI. (2 soat).**

#### *Reja:*

- 1.1. Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi
- 1.2. O‘rta Osiyoda antropogenez jarayoni masalasi.
- 1.3. Zamonaviy ilmiy nazariyalar.

### **2- MAVZU. O‘RTA OSIYONING TOSH VA PALEOMETALL DAVRI ARXELOGIYASI MASALALARI (2 soat).**

#### *Reja:*

- 2.1. O‘rta Osiyoning tosh davri arxeologiyasi: yangi tadqiqotlar va xronologiya masalalari.
- 2.2. O‘rta Osiyoning paleometall davri arxeologiyasi masalalari: tadqiqotlar ko‘lamining o‘shishi.

### **3- MAVZU. O‘RTA OSIYONING ANTIK DAVRI ARXELOGIYASI MASALALARI (2 soat).**

#### *Reja:*

- 3.1. Antik davri arxeologiyasining o‘rganishda yangicha yondoshuvlar va ilmiy nazariyalar.
- 3.2. O‘rta Osiyoning antik davri arxeologik yodgorliklarini tasnifi.

### **4-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI YILLARIDA ARXELOGIYA SOHASIDA XORIJ BILAN ILMIY HAMKORLIK MASALASI. (2 soat).**

#### *Reja:*

- 4.1. O‘zbekiston arxeologiyasi rivojlanishining yangi bosqichi.
- 4.2. O‘zbekiston arxeologiyasining xorij bilan ilmiy hamkorligi: zamonaviy tadqiqotlar va natijalar.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning tosh va paleometall davri jamoalarining turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo‘jalik iqtisodiy asoslari, ma‘naviy kechinmalari, madaniy aloqasi va madaniyatlar genezisi (2 soat).

**2-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyo ilk temir davri yodgorliklarining umumiy tasnifi. Asosiy yodgorliklar va ularning moddiy madaniyati (2 soat).

**3-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning antik davri arxeologiyasining zamonaviy o‘rganish bosqichi. Asosiy yodgorliklar. Tadqiqotlar natijalari va muammolar (2 soat).

**4-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asr arxeologiyasini o‘rganishning asosiy masalalari: natijalar – yutuqlar – muammolar (2 soat).

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

Ko‘chma mashg‘ulotlar “O‘rta Osiyoning tosh va paleometall davri arxeologiyasi masalalari” (6 soat) hamda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologiya sohasida xorij bilan ilmiy hamkorlik masalasi” (6 soat) mavzulari yuzasidan zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari, oliy ta‘lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida olib boriladi.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha echimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

**Izoh. KWHL:**

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo‘ladi?*

*Learn - nimani o‘rganib oldim?*

“KWHL” metodi	
<p><b>1. Nimalarni bilaman:</b></p> <p>-</p>	<p><b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b></p> <p>-</p>
<p><b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b></p> <p>-</p>	<p><b>4. Nimalarni bilib oldim:</b></p> <p>-</p>

### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

## “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• xavflar

*2.1-rasm.*

## “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### 2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

### “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>


## “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

## “Insert” metodi

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“√” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta‘lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-MAVZU: ARXELOGIYANING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARI. (2 soat).

##### *Reja:*

- 1.1. Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi.
- 1.2. O‘rta Osiyoda antropogenez jarayoni masalasi.
- 1.3. Zamonaviy ilmiy nazariyalar.

**Tayanch iboralar:** O‘rta Osiyo, arxeologiya, dolzarb, fan, inson, jamiyat, tarix, ilmiy, zamonaviy, nazariya.

##### **O‘rta Osiyo arxeologiyasini o‘rganishning zamonaviy bosqichi.**

O‘zbekiston mustaqilligi davri 1991 yildan boshlanadi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yilda Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlari, Buyuk ipak yo‘li tarixini keng tadqiq qilinishi yuzasidan olib borilgan ishlar arxeologik tadqiqot ishlarining yanada jonlanishiga sabab bo‘ldi. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlik samarali bo‘lmoqda. Yapon olimlari Surxondaryo xududida, Avstriya olimlari Qoralpog‘iston xududida, Rossiya olimlari Xorazm va Toshkent xududlarida tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Hozirda O‘zbekiston arxeologiyasini o‘rganish ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu ish bilan maxsus institutlar, universitetlar, pedagogika institutlari va turli bo‘limlar shug‘ullanmoqdalar.

So‘nggi o‘n yillikda madaniyat va tarixiy yodgorliklarni qayta ro‘yxatga olish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa yodgorliklarni muhofaza qilish ishlariga ancha samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. XX asrning 90- yillarida yodgorliklarning 7216 tasi hisobga olingan. Shulardan 1595 tasi me’moriy yodgorliklar, 3106 tasi mahobatli san’at asarlari, 2115 tasini arxeologik yodgorliklar tashkil etdi. Ulardan 1831 tasi respublika miqyosidagi davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, 513 tasi me’moriy obidalar, 98 tasi mahobatli san’at asarlari, 1213 tasi arxeologik va 27 tasi tarixiy yodgorliklardir. Bunday yodgorliklar ayniqsa, Samarqand ( 997), Buxoro (804) , Qashqadaryo (592), Toshkent (562), Farg‘ona (512) viloyatlarida ko‘p. Respublikamizdagi arxeologik yodgorliklarni saqlash bugungi kunda qonun 2009 yil 16iyunda qabul qilingan. U Arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilishi va

ulardan foydalanish to'g'risida deb nomlanadi. Unda arxeologik ob'ektlar davlat tomonidan muxofaza qilinishi qonunlashtirilgan.

Bu mamlakatimiz butun hududi qadimiy madaniyat va uyilzatsiya o'chog'i bo'lganligidan dalolat beradi.

Arxeolog olimlar O'.I.Islomov va K.A.Kraxmallar O'rta Osiyo mintaqasining o'ziga xos geologik tuzilishini, ya'ni tog'lik, adirlik va pasttekisliklardan iborat ekanligini hisobga olib, undagi geotektonik va geomagnit hodisalarni radiomagnit metodlari orqali o'rgandilar. Natijada olimlar pasttekisliklardagi ximiyaviy o'zgarishlar tog'lik xududlarga nisbatan sekin kechishini isbotladilar va paleolit davri yodgorliklari uchun ilgari belgilangan sanalarni 500-600 ming yilga qadimiylashtirdilar. Bu esa, jahon miqyosida katta yangilik bo'ldi.

Arxeologik ilmiy tadqiqot ishlarining ikkinchi bosqichda yodgorlik haqida ma'lumotlar to'planadi. Birinchi, navbatda yodgorlik to'g'risidagi afsonalar va rivoyatlar so'rab surishtirish ishlarini olib boriladi va uning sirtida saqlanib qolgan moddiy ashyolar ilmiy tahlil qilinib, dastlabki xulosalar yasaladi. Keyin yodgorlikning davri va uning bosqichlari, madaniy qatlamlari to'g'risida umumiy ma'lumotga ega bo'lish maqsadida yodgorlikning bir qismida shurf solinadi. "Shurf" nemischa so'z bo'lib, qazimoq, degan ma'noni anglatadi. Shurf kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidan iborat bo'lib, tomonlari ikki va undan ortiq hatto o'n metrdan ortiq bo'lishi mumkin.

Arxeologiya ilmiy tadqiqot ishining oxirgi bosqichida yodgorlikda keng ko'lamli qazishma ishlari olib boriladi. Har qanday stratigrafik qazish ishlari yodgorlikning materik, ya'ni erning soz tuproq qismiga qadar qazib tushiladi. Ayrim hollardagina planigrafik qazish ishlari olib borilishi mumkin. Planigrafik qazishma ishlari ma'lum davrga oid inshootlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, ko'pincha yodgorlikning yuqoridagi madaniy qatlamlarini o'rganishda foydalaniladi.

Madaniy qatlamlarda insoniyatning turmushi tarzi, xo'jalik va g'oyaviy faoliyati izlari saqlanib qolgan. Bu qatlamlar yillar, asrlar davomida asta-sekin to'planib borgan. Arxeologik yodgorliklarda bir yoki bir necha o'nlab madaniy qatlam mavjud bo'lib,

ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30-35 metrlargacha bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur manzilgohda kishilar hayot faoliyatini qancha davom etishi bilan bog'liq.

Arxeologlar kundalik tadqiqot ishlarining natijalarini qayd qilib boradilar. To'plangan ashyoviy manbalar tadqiqot ishlarini olib borayotgan muassasa ilmiy laboratoriyasida qayta ishlanadi. Dastlab topilmalarni muhofazalash va tiklash ishlari bajariladi. Keyin ular turlar bo'yicha ajratilib, ilmiy tahlil etiladi va qazishma ishlari davomida yozma qaydlari bilan umumlashtirilib mazkur yodgorlikning ma'lum hudud tarixini ochib berishidagi ahamiyati masalalari bayon qilinadi. Ilmiy tadqiqot ishlari yakuning tafsilotlari tadqiqotchi tomonidan tegishli ilmiy muassasaga yozma hisobot beriladi.

Arxeologiyada qadimgi davrlar tarixi tabiiy-geografik sharoit bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi. Arxeologiyada bu "ekofakt" va "artefakt" tushunchalari bilan ishlatiladi.

O'rta Osiyo hududida ham ashel davriga oid o'ndan ortiq makonlarda arxeologik qazish ishlari amalga oshirilgan. Ulardan Selengur (Farg'ona vodiysi), Ko'lbuloq (Toshkent), Qoratorov I va Lohutiy I (Janubiy Tojikiston), Janish va Dostiq (Janubiy Qozog'iston) kabi yodgorliklar muhim ahamiyatga ega. Ularning sanasi mutlaq davrlashtirish asosida mil.av. 700-200/150 ming yilliklar doirasida sanalanadi. Seleng'ur makonida ikkalasidan ham toshqotishmadan yasalgan mehnat qurollari topilsada, Lohutiy I nisbatan ancha rivojlangan madaniyatga ega. Hozirgi kunga kadar O'rta Osiyo hududidan ashel davrga oid yigirmaga yaqin osik turdagi va g'or-makonlar aniklanib ularning ko'piligida arxeologik kazish ishlari olib borilmokda.

Selengur makoni Oloy tizmasidagi Haydarkon degan joyda joylashgan. Bu yodgorlik dastlab 60-yillarda o'rganilgan 80-90 yillarda arxeolog olim O'. Islomov va uning shogirdi K.Kraxmallar tomonidan davom ettirilgan yodgorlikda beshta madaniy qatlam aniqlangan. Uning madaniy qatlamidan ko'plab tosh qurollari, havon suyaklari bilan birgalikda eng qadimgi odamlarga tegishli suyaklar topilgan. Suyaklar bosh chanoqning yuqori qismi, olti dona tish va elka suyak bo'laklaridan iborat bo'lgan. Bu erdan jami 1417 dona tosh qurollari topilib, shundan 852 tasi uchrindi, 306 turli tosh qurollari va 38 tasi nukleuslardan iborat. Tosh qurollari har xil nukleus, uchrindi, bir

tomoni urib uchirilgan chopper va boshqalardan iborat. Topib o'rganilgan suyaklar yirtqich hayvon ayiq, buri, yovvoyi cho'chqa, buqa, tur, ot, arxar, bug'i, nasorglarnikini tashkil etadi. Bu ashel davrining noyob yodgorliklaridan biridir.

Ep shari yuzasining yarmidan ko'pini batial va abissal terrigenli, organogenli, xemogenli va vulkanogenli cho'kindilar egallab yotadi. Shelflarda shakllanadigan cho'kindilar talaygina kam maydonlarda rivojlanganlar. Dengiz cho'kindilari ichida suzib yuruvchi muzlar va aysberglar tomonidan keltirilgan materialdan hamda shelfli, tog'li va qoplama muzliklardan hosil bo'lgan glyaial-dengiz (muzli - va muz-dengizli) yotqizilari alohida ahdmiyatga ega. Xuddi shu cho'kindi tiplari Evrosiyo va Shimoliy Amerika atroflarini o'rab olgan hamma shimoliy dengizlarda va Antarktida atrofidagi janubiy dengizlarda hamda Subtropik Evrosiyo, Kanala va Alyaska tekisliklarida keng tarqalgan. Bu cho'kindilar gil, suglinka, ko'pincha zich, noaniq-qavatlashgan, o'zida shag'al, sheben, g'o'latosh, valuna va palaxsa toshlardan tashkil toptan. Quruqlikda ular morenalarga qabul qilinadi, shuning uchun ular morenasimon deb nom oldilar.

Yotqizilar uchta asosiy kimyoviy, organik va lassi turda klassifikatsiya qilinadi. Bulardan birinchi ikkitasi ko'proq geoarxeologiyaga tegishli hisoblanadi. Lasti yotqizilar eng ko'p tur hisoblanadi. Ular tashkil topgan qoya parchalaridan, boshqa yotqizilardan yoki tuproq moddiyatlardan ya'ni eroziyaning tarixi tasviri, ko'chishi va saqlanishidan iborat. Ko'pchilik lasti yotqizilarning shamolga o'xshagan (masalan qum tepaliklar), suv yo'llari (masalan daryochalar, dengiz bo'ylari) va gravitatsiya (inqiroz, ko'chish, emirilish) vositalar yordamida saqlab qolinadi.

Inson qadimdan o'zini xayvonot va o'simlik dunyosi bilan bog'liqligini tushunib etgan. Bu tushuncha ilk diniy e'tiqod va urf-odatlar bilan bog'liq xodisalarda tabiatning inson tomonidan o'zlashtirila boshlanganligida shakllanadi. Bunda madaniyat taraqqiyotining ekologik omillariga e'tibor berish lozim.

Ep shari yuzasining yarmidan ko'pini batial va abissal terrigenli, organogenli, xemogenli va vulkanogenli cho'kindilar egallab yotadi. Shelflarda shakllanadigan cho'kindilar talaygina kam maydonlarda rivojlanganlar. Dengiz cho'kindilari ichida suzib yuruvchi muzlar va aysberglar tomonidan keltirilgan materialdan hamda shelfli, tog'li va qoplama muzliklardan hosil bo'lgan glyaial-dengiz (muzli - va muz-dengizli)

yotqiziqlari alohida ahdmiyatga ega. Xuddi shu cho‘kindi tiplari Evrosiyo va Shimoliy Amerika atroflarini o‘rab olgan hamma shimoliy dengizlarda va Antarktida atrofidagi janubiy dengizlarda hamda Subtropik Evrosiyo, Kanala va Alyaska tekisliklarida keng tarqalgan. Bu cho‘kindilar gil, suglinka, ko‘pincha zich, noaniq-qavatlashgan, o‘zida shag‘al, sheben, g‘o‘latosh, valuna va palaxsa toshlardan tashkil toptan. Quruqlikda ular morenalarga qabul qilinadi, shuning uchun ular morenasimon deb nom oldilar.

Yotqiziqlar uchta asosiy kimyoviy, organik va lassi turda klassifikatsiya qilinadi. Bulardan birinchi ikkitasi ko‘proq geoarxeologiyaga tegishli hisoblanadi. Lasti yotqiziqlar eng ko‘p tur hisoblanadi. Ular tashkil topgan qoya parchalaridan, boshqa yotqiziqlardan yoki tuproq moddiyatlardan ya’niki eroziyaning tarixi tasviri, ko‘chishi va saqlanishidan iborat. Ko‘pchilik lasti yotqiziqlarning shamolga o‘xshagan (masalan qum tepaliklar), suv yo‘llari (masalan daryochalar, dengiz bo‘ylari) va gravitatsiya (inqiroz, ko‘chish, emirilish) vositalar yordamida saqlab qolinadi. Lasti yotqiziqlarning odatiy misollari (xuddi komponentlar hajmining pasayishiga asoslangan) qum, loyqa va gil. Geologik ma’lumotlarda qoyalar turlari adirliklar, qum uyumlari va balchiq uyumlaridir. Vulqonli lasti parchalari vulqon kullari, bo‘laklari, qoldiqlaridan iborat bo‘lsa, pyrolasti oqim bo‘laklari lasti yotqiziqlar deb tushuniladi. Qisqasi, ular birmuncha g‘ayrioddiy geoarxeologik kontekstlardir. Shuningdek, ular vulkanik hududlar bilan chegaralangan<sup>1</sup>.

Shunga qaramay ular arxeologik manzilgohlarning shakllanishi va stratigrafiyasidagi muhim aspektdan tashkil topgan. Arxeologik vaqtda misollar tasvirlash uchun makon hisoblanadigan Pompey taxminan 4mli vulkanli lasti bo‘lagi (tefra) bilan o‘ralagan va vulqon quyindisi, vulqonli qum, lapilli (2-64mm) va kul (2 mm) dan iborat. San-Salvadorda, Eren manzilgohida bir xil turdagi turar joylar aks ettirilgan, ya’ni tuzulishi va qishloq xo‘jalik erlari bir necha metr tepa ostida ko‘milib ketgan edi. Sharqiy Afrika, Turkiya, Jordon Rift va Jeorjiyadagi manzilgohlardan topilgan goloçen va pleystoçen davrining stratigrafiyasi va sanalarida vodiylarda saqlanib qolgan vulqon lasti topilmalari asosiy rol o‘ynaydi. Olduvay Gorge, Gobi Fora,

---

<sup>1</sup> John Barrett. The Emergence of Civilisation Revisited (Sheffield Studies in Aegean Archaeology) edited by John C. Barrett and Paul Halstead. Sheffield, 2005.

Gesher Benot Yakov va Dmanise arxeologik va insoniyat yashab qolgan manzilgohlardan bir nechtasi bo‘lib hisoblanadi.

Goloçen – muzlashdan keyingi davr. Muzlash davri tugashi bilan hozirgi davr iqlimi shakllanadi. Muzliklar shimolga chekinib, turli kengliklarga xos o‘simlik va hayvonot dunyosi shakllanadi. Hozir 14 ming yildan buyon issiq iqlim xukm surmoqda. Sibir, Shimoliy Amerika, Shimoliy Evropa abadiy muzliklari, subarktik o‘simliklari hududlari yuzlab kmlarga shimolga chekinadilar.

Goloçen faslining boshi er avv 8-4 ming yilliklar Atlantik optimum- (mo‘tadil) deb ataladi. Harorat ancha issiq va seryomg‘ir bo‘lgan. Sahroda ham yiligi 300-400 mm yomg‘ir yog‘gan. Afrikani markazidagi Chad ko‘li kengayib Kaspiy dengiziga etgan. Arxeologik jixatdan bu davr neolitga to‘g‘ri keladi. Bu davrda dehqonchilik bilan chorvachilik rivojlanib, ishlab chiqarish shakllanadi. Bu davrda shimoliy mintaqalarda qurg‘oqchilik bo‘ladi. Lekin 3 ming yillikning oxirida qurg‘oqchilik xukmron bo‘ladi. U erda ham bir zamonlar Nil bilan tenglashadigan daryo oqqan, ularning qirg‘oqlarida tosh qoyalarga chizilgan petrogliflar topilgan<sup>2</sup>.

Eng qadimgi petrogliflar er avv 6-7 ming yillikka oid bo‘lib, fil, jirafalar tasviri, hayvonlar uyuri ham uchraydi. Bu hayvonlarni ovlovchi aholining qiyofasi negroidlarga o‘xshaydi.

- 1) Neolit davri er.avv. 4 ming yillikka oid suratlar, bu erda chorvachilik manzarasini ko‘rishimiz mumkin.
- 2) Er. avv. 1200 yil otlar tasviri uchraydi. Ot Markaziy Osiyoning shimoliy hududlarida xonakilashtirilgan.

Er avv 2 ming yillikning 2 yarmida va undan oldin Yamnaya, Katakombnaya, Andronovo madaniyatining vakillari chorvador aholisi otboqarlik sa‘natini dunyoga tarqatadi.

Yamnaya – O‘ra, Yorma go‘r,

Katakombnaya – Laxad,

---

<sup>2</sup> John Barrett. The Emergence of Civilisation Revisited (Sheffield Studies in Aegean Archaeology) edited by John C. Barrett and Paul Halstead. Sheffield, 2005.

Andronovo – Yog‘ochdan qabr qilgan.

Paleograflarning kuzatishiga ko‘ra Qizilqum manzarasi mil. avv. 4 ming yilliklarda yashnagan joy bo‘lgan. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon sersuv bo‘lib, Kaspiyga quyilgan. Bu mintaqalarda yovvoyi xo‘kiz ( tur ) doimiylik iqlimiga moslashgan hayvonlar yurgan.

Janubiy Turkmanistondagi Kopetdog‘ sersuv bo‘lib, bu erda Joytun madaniyati shakllanadi. Joytun shimoliy xududda keng ko‘lamda topilgan Kaltaminor madaniyati bilan chegaradosh bo‘lgan. Kaltaminor madaniyatining ovchi, termachilik axolisi nam shimoliy mintaqalarga chekinib o‘rta kenglik o‘zlashtirildi. Natijada g‘arbiy yunalishda sharqiy Evropa xududiga etib boradi.

Buxoro vohasining g‘arbiy hududlaridan g‘arb tomon ko‘chib ketgan Zarafshon daryosining etaklari topilgan. Asosiysi oyoq og‘itma deb ataladi. Uning qirg‘og‘ida 80 metrlik jar yoqasida er avv 4 ming yillik oxiriga oid Kaltaminor madaniyatiga mansub manzilgox topilgan. Bir zamonlar bu manzilgox Zarafshon daryosi etagida hosil bo‘lgan ko‘l atrofida paydo bo‘lgan. 6 ming yil mobaynida yuz bergan tiktonika o‘zanni 80 metrga o‘sib ketgan.

Hozir ham O‘rta Osiyo maydoni seysmologlarning xabariga ko‘ra yiliga o‘rta hisobda 1smga o‘sib bormoqda, jumladan, Orol dengizini tubi ham.

Qo‘y bilan sigir birinchi bor Yaqin Sharqda xonakilashtiriladi. Ikki o‘rkachli tuya aynan Kaltaminor madaniyati vakillari tomonidan xonakilashtirilgan.

Evropada ham 4 ta salqin nam fasllar aniqlangan, bularning sanasi er avv 3700-3100, 2600, va 2 chi ming yilliklarga to‘g‘ri keladi. Asosiy muzlash g‘arbiy Evropada 3 ming yillik boshiga to‘g‘ri keladi. Bu faslda qurg‘oqchilik avjiga chiqadi. Ko‘p madaniyat markazlari talofatga uchraydi. Shuning natijasida Markaziy Osiyoda BMAK madaniyati ( Baqtriya, Marg‘iyona ) paydo bo‘ldi.

Sopollitepa, Jarqo‘ton, Gonur, Togolok, Dashtli 3 va boshqa ilk shaharlar aynan shu ko‘chishning oqibatida O‘rta Osiyoga Yaqin Sharq madaniyatini olib kiradi. Arxeologik ma.daniyatlarning o‘zgarishlari, yozuv shu erda yozuv bor.

Misol: qishda Dunay daryosini muz qoplab uni ustidan ot va piyodalar o‘tib yuradi. Bir zamonlar Janubiy Arabistonda Sabiy podsholigi bo‘lgan, o‘sha davrga oid

hozir qurib yotgan daryoda katta er avv 9 asrga oid to'g'on topilgan, 2chi to'g'onning bo'yi 600 metr.

Qadimiy Xitoy, Misr, Evropa manbalarda ham er avv 3 ming yillikning 1 yarmida iqlim o'zgarib turgan.

Kaspiy dengizining sathi hozirgidan 80 metr baland bo'lgan. Er avv 7 ming yillikda esa uning sathi hozirgidan 20 metr pastda bo'lgan.

Evropa hududlari goloçenning issiq faslida Alp tog'larining o'rmonlari chegarasi hozirgiga nisbatan 1 km baland bo'lgan<sup>3</sup>.

Atlantik Plyuviyal davrida O'rta Osiyo hududi harorati issiq bo'lgan mintaqasida ko'proq yomg'ir yoqqan. Shu davrda O'rta er dengizining sharqiy hududlaridan Evropaga , shimoliy Afrikaga , janubiy Osiyoga megalitlar madaniyati tarqala boshladi. ( Dolmek, Mekgyur, Kromleklar ).

Megalit – ulkan toshlardan qurilgan inshootlar.

Sibir hududlarida mamontlar goloçen davrining boshida 12 -10 ming yil oldin qiriladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda qurg'oqchilik xukm suradi. Issiqko'l ko'lining tranzgressiyasi kuzatiladi. Yaqin sharq, O'rta sharqni sug'orib turgan ciklonlari shimolga siljiydi.

Goloçen davrida uning boshida ( 13-6 ming yillik ) muzliklarni erishi natijasda jaxon okeanlarining satxi har ming yil mobaynida 9 smga ko'tarilgan. Evropa hududlarida Qadimiy goloçen faslida qurg'oqchilik yuz bera boshlaydi. Angliya Evropadan ajrab qoladi, Alyaska Kamchatkadan ajrab qoladi. Oxirgi 4 ming yilda okean sathi 1 metrdan 4 metrgacha ko'tarilib kelmoqda.

Ibtidoiy jamiyat tarixidan boshlab inson tabiatdan o'z maqsadlarida foydalangan (o'rmon, daryo, ko'llar o'rab turgantevarak atrofdagi mavjud xom ashyo, o'simliklar, meva, xayvonot dunyosi, tabiiy oziq-ovqat zaxiralari o'zlashtirilgan). O'zlashtiruvchi xo'jaliklar rivojlangan davrlarda o'rug' va qabila a'zolari muayyan xududda istiqomat qilgan. Ularning xududiy joylashuvi qon – qarindoshlik tamoyillariga asoslangan bo'lib,

---

<sup>3</sup> John Barrett. The Emergence of Civilisation Revisited (Sheffield Studies in Aegean Archaeology) edited by John C. Barrett and Paul Halstead. Sheffield, 2005.

u yoki bu tumanda faqat qarindosh urug‘ vakillari istiqomat qilgan. O‘zlashtirilgan xududlar o‘rtasida shartli chegaralar mavjud bo‘lgan.

Etnogeografiya axolining xududiy joylashuvi xususiyatlarini, urug‘, qabila, etnik guruxlar, elatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va turli tarixiy davrlarga xos jamiyatga tabiy-geografik omillarning ta’siri hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning axamiyatini o‘rganadi. Geografik sharoit insonning mehnat usullari moddiy madaniyat, turmush tarzi va umuman xayotiga ta’sir qilgan<sup>4</sup>.

Qadimgi davrlarda jamoalar turlicha tabiy sharoitda joylashishi va atrof-tevarakga moslashishi tufayli ularning xayotida turli shakllardagi xujalik madaniyatlar vujudga kelgan edi. Misol tariqasida dengiz, ko‘llar, daryolar atroflarida joylashgan qabilalar xayotida baliqchilik, dasht, tog‘ oldi va tog‘li tumanlarda joylashgan axolisida ovchilik ustunlik qilgan edi yoki baliqchilik, ovchilik va termachilik kompleks tarzda rivojlangan. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning (dexqonchilik, chorvachilik) shakllanishiga issiq iqlim, xosildor erlar, yovvoyi boshqoli o‘simliklar va mayda shohli xayvonlarning tabiatda mavjudligi asos bo‘lgan. Dehqonchilik sovuq iqlim erlarda yoki qalin o‘rmonlar, butazorlar egallab olgan xududlarda va cho‘llarda rivoj topmagan.

Xo‘jalik – madaniy tiplar jamoalarda ustuvor ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, muayyan urug‘, qabila, etnik guruxlar va elatlarning tevarak – atrofdagi aloqa xususiyatlarini belgilaydi.

Xo‘jalik –madaniy tiplarning ta’rifida uy-joylar, mehnat qurollari, xunarmandchilik maxsulotlari, uy-ro‘zg‘or va madaniy buyumlarga e’tibor berish lozim. Xo‘jalik - madaniy tiplarning umumiyliigi yaqin geografik muxit bilan bog‘liq bo‘lib, tabiy sharoit ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot qishloqlarning turmush tarzi, moddiy madaniyati va ma’lum darajada ma’naviy madaniyatga ta’sir qilgan.

Yuqorida aytib o‘tilgandek mazkur masalani o‘rganish jarayonida tabiy sharoit va iqlim xususiyatlariga e’tibor berish lozim. Misol tariqasida issiq iqlim sharoitida daryo voxalarida dastlab lalmikor dexqonchilik va so‘ng sug‘orma dexqonchilik tarqalgan.

---

<sup>4</sup> Paul Goldberg and Richard I. Macphail. Practical and theoretical geoarchaeology. Blackwell publishing. 2006.

Ko‘p jixatdan xo‘jalik-madaniy tiplarning birligi va o‘zaro bog‘liqligi tarixiy etnografik viloyat yoki tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Ma‘lum xududlarda joylashgan, uzoq tarixiy davrlar mobaynida o‘zaro aloqalarda bo‘lib, umumiy moddiy va ma‘naviy madaniyatni yaratgan axoli guruxlari tarixiy – madaniy viloyat dirasida bir odatlar, e‘tiqodlar, shuningdek til hamda etnik yaqinlik birlashtirgan<sup>5</sup>.

Atlantik plyuviyal davrida O‘rta Osiyo sahrolarida yiliga 250-450 mmga qadar qor yog‘ib turgan, harorat hozirgidan 8-10 gr past bo‘lgan. 3-2 ming yilliklarda iqlim qurib harorat ko‘tariladi. Joyitunni o‘rnini Anov 1 egallaydi. Dashtda eneolit, bronza davriga oid manzilgohlar tashkel topadi. Er avv 2 ming yilliklarda esa O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida BMAK madaniyati shakllanadi. Dashtda esa shimoliy ko‘chmanchi Andronovo madaniyati kirib keladi. Oxirgi 4 ming yil ichida 7 ta nam fasl kuzatilgan. Bular er avv 1900,1300, 760, 20, va eramizni 920,1120, 1700 yillardan boshlangan. Bu fasllar natijasida o‘troq dehqonchilik goh kengayib goh torayib borgan. Xorazm eks-si Sariqqamish atrofida hayot kechirgan. Bu hududda suvi er avv 2 ming yillikda quriydi. Er avv 8-7ming yilliklarda O‘zboydan Sariqqamishga yana suv kela boshlaydi va bu hududda saklarga mansub Quysisoy manzili topilgan.

O‘zbekistonda ilk mezolit davriga oid manbalar XX asr boshlarida topilgan. Mezolit davrini sistemali o‘rganishni A.P.Okladnikov boshlab bergan. Keyinchalik Katta va Kichik Balxash hududlarida ko‘p qatlamli mezolit davriga oid yodgorliklar, Ustyurtda, Markaziy Farg‘onada, Qizilqum, Pomirda mezolit yodgorliklari ko‘plab topilgan.

A.M.Mandelstam, X.Yu. Yusupov, Yu.A.Zadneprovskiy, O‘.Islomov—Farg‘onada, E. Bijanov, V.Yagodin, A.Vinogradov, G.Xodjaniyozovlar Ustyurtda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Lekin O‘zbekiston mezoliti boshqa davrlarga nisbatan kam o‘rganilgan. O‘.Islomov shu kunga qadar O‘zbekiston hududida o‘rganilgan yodgorliklarni uchta — Farg‘ona, Toshkent va Surxandaryo territorial xususiyatlarga bo‘ldi.

---

<sup>5</sup> Paul Goldberg and Richard I. Macphail. Practical and theoretical geoarchaeology. Blackwell publishing. 2006.

**Qo‘shilish makoni** Toshkentning g‘arbida qadimgi Bo‘zsuv anhorining chap sohilidan topilgan. U erdan nukleuslar, mayda paraqachalar, qirg‘ichlar va hech bir makonda uchramaydigan uchburchak shaklidagi qurollar topilgan. Qo‘shilishning madaniy qatlamidan topilgan mazkur qurollar so‘ngi tosh davri qurollariga nisbatan o‘zining ancha ixchamligi va qurol turlarining xilma–xilligi bilan ajralib turadi. Bu erdan topilgan nukleuslar va qirg‘ichlar Farg‘onadagi Obishir I, Y, Achchiko‘l va Machaydan topilgan nukleuslar va qirg‘ichlarga o‘xshab ketadi. Lekin Qo‘shilishdagi qurollar ancha qadimiy arxaik xususiyatga egadir. Qo‘shilishdan topilgan qurollarda o‘ziga xoslik ham bor, ya‘ni bu erda geometrik shaklda yasalgan qurollar uchramaydi. Shuningdek, Qo‘shilishda boshqa makonlarda bo‘lgan pichoqsimon paraqalar topilgan emas. Qo‘shilish qurollarining ba‘zilari Yaqin va O‘rta Sharqdagi Shanidavr, Paligavr, Gari-Kamarbanddan topilgan qurollarga o‘xshab ketadi.

Farg‘ona vodiysida va uning janubidagi tog‘li hududlarda mezolit davri makonlar ancha ko‘p topilgan. Shular jumlasiga, Farg‘ona vodiysining janubidagi Qatron tog‘idan topilgan Obishir I va Obishir V g‘or–makonlarini kiritish mumkin. Ular miloddan avvalgi IX–VIII ming yilliklarga oiddir.

**Obishir 1 g‘or–makoni** Haydarkon shaharchasidan 4-5 km sharqda joylashgan. U erning madaniy qatlamlaridan mikrolitlar, bigizlar, qirg‘ichlar, pichoq qadamalari, nukleuslar topilgan. Ular boshqa joylardan topilgan mezolit davri qurollariga o‘xshaydi.

**Obishir V g‘or–makoni** esa Obishir I dan 200 metrcha g‘arbda joylashgan. U erda 3 ta madaniy qatlam aniqlangan. U erdan topilgan mehnat qurollarining ishlanish texnikasi Obishir I ga o‘xshaydi. U erning quyi madaniy qatlamlaridan oq–qora va kul rang chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlar– paraqalar, pichoq qadamalari, qirg‘ichlar, keskichlar, teshgichlar, o‘roq–randalar va turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shuningdek bu erdan yovvoyi hayvonlarning parchalangan va sindirilgan suyaklari ham topilgan.

Keyingi yillarda Markaziy, Janubiy va Sharqiy Farg‘ona erlaridan mezolit davri makonlari ko‘plab topilgan. Markaziy Farg‘onadan bu davriga oid 100ga yaqin joydan makonlar topilgan. Ulardan Ittak qal‘a, Sho‘rko‘l, Achchiko‘l, Yangiqadam, Bekobod,

Zambor, Bosqumlar diqqatga sazovordir. U erlardan har xil shaklda retushlangan va retushlanmagan nukleuslar, qirg'ichlar, paraqalar, mayda geometrik qurollar topilgan. Bu erda ko'proq mayda nukleuslar uchrab, yirik nukleuslar deyarli uchramaydi. Daryo toshlaridan olingan uchrindilar ham bor. Bu erdan topilgan mehnat qurollari qora, yashil, jigarrang chaqmoqtosh, slanec va boshqa toshlardan yasalgan. Bu yodgorliklar ochiq joydagi makonlar bo'lib, madaniy qatlamlar yo'q. Tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Farg'onadagi ilk va so'nggi mezolit davri makonlar o'sha vaqtning o'zidayoq tashlab ketilgach, buzila boshlagan. Hozirda bu joylar keng qum barxanlari ostida qolgan. Lekin mezolit va neolit davrlarida bu erlarda ko'llar bo'lgan. Ibtidoiy odamlar shu ko'l sohillarda yashaganlar. Termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Farg'onada faqat tosh davri yodgorliklar mavjud. Boshqa davrlarga oid yodgorliklar va madaniy qatlamlar yuq.

Tadqiqotchilar Markaziy Farg'onadagi mezolit davri yodgorliklarini 2 guruhini aniqlab, uning rivojlanishidagi ilk va so'nggi bosqichini aniqladilar. İlk mezolit davri miloddan avvalgi IX—VII yilliklarga oid bo'lib, unga Ittak qal'a 2, Achchiko'l 1,7, Yangi qadam 1,2 va Toypoq 1 makonlari kiradi.

Markaziy Farg'onaning so'nggi mezolit davri miloddan avvalgi VI ming yilliklarga mansub. Unga Achchiko'l, Bekobod 3,4, Sho'rko'l 1, 2, Madyor 11, Zambar 2, Toypoq 3,5,7 va boshqa joy makonlarni kiritish mumkin.

**Mezolit davri xronologiyasi masalalari.** Mezolit davri (yunon. mezos-o'rta, litos-tosh) - o'rta tosh davri bo'lib, ilk bor Allen Braun tomonidan (1883) paleolit va neolit davrlari oralig'i tosh qurollari majmuasini belgilash maqsadida qo'llanilgan. Rossiya arxeologiyasida dastlab M.Ya. Roginskiy tomonidan (1928) ishlatilgan. hozirgi paytda ushbu atamaning ekvivalenti epipaleolit va goloen davri paleoliti kabi atamalar ham ayrim horijiy mamlakatlar arxeologiyasida qo'llanilib kelinadi.

Evrosiyo hududlarida arxeologik tadqiqot ishlari yutuqlari hozirgi paytda mezolitning davri va sanalini aniqlashga asos bo'lib xizmat qilgan. Shunga ko'ra mezolitning nisbiy (makonlar stratigrafiyasi-madaniy qatlam) va mutloq davrlashtirish asosida mil. avv. XII-VII/VI ming yilliklar doirasida belgilangan. Bu sana bevosita Old Osiyo, xususan, O'rta Osiyo hududilari uchun mos keladi. Er yuzining boshqa

hududlarida, xususan, Evrosiyoning shimoliy ayrim janubiy (Osiyo) mintaqalarida mezolit davri an'analari mil.avv. V/IV ming yilliklarga qadar ham davom etganligi ma'lum.

So'nggi paleolit davrining Oxirgi bosqichlarida er yuzi tabiiy sharoitida boshlangan muhim o'zgarishlar mezolit davriga kelib muzlik erib, issiq iqlim sharoitining qaror topishi bilan yakun topadi. Must'e davrining Oxirgi bosqichi va so'nggi paleolit davrlarida er sharining shimoliy qismini qoplagan so'nggi vyurm (valday) muzligi erib, er yuzida global isish boshlanadi va pleystoen goloen bilan almashadi. Zamonaviy qadimgi iqlimshunoslik fani ilmiy yutuqlariga asosan muzlik erishining boshlanishi mil. avv. 14 ming yillikdan boshlanib, ko'pchilik olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra mil. avv. 8300 yillarda batamom erib tugaydi.

Muzlik davri tugab ob-havo isishi bilan er yuzining flora va faunasida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Muzlikdan tozalangan hududlar landshaftlari manzarasi keskin o'zgarib, muzliklar o'rnida daryolar va ko'llar paydo bo'ladi.

Muzlik oldi hududlarida yashovchi sovuq iqlim sharoitiga moslashgan mamont, karkidon, qo'ybuqa kabi hayvonlar so'nggi paleolit davrining oxirlaridayoq yashash sharoitlari og'irlashib, muzlik ortidan chekka shimolga chekinishga majbur bo'lishgan va keyinchalik tur sifatida qirilib ketgan. hayvanot olamidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik hayvonlarning o'rniga tez chopar, ziyrak va yakka yashashi mumkin bo'lgan hayvonlar turining ko'payishi paleolit davri ovchilik an'alarining qiyinlashtiradi. Natijada bu turdagi hayvonlarga ov qilish uchun yangi vositalarni ixtiro qilishga zarurat tuqiladi. Bu albatta mezolit davrining buyuk ixtirosi o'q-yoydan foydalanishning boshlanishi edi. Bu esa butun paleolit davrida yirik hayvonlarni butun jamoa a'zolari hamkorlikda hamal usulidagi ov qilishga barham berib, nisbatan kichik va tez harakatlanuvchi hayvonlarni yakka holda ovlash usuliga o'tishga olib keladi.

Bu darda muzlikdan bo'shagan hududlarda va janubiy mintaqalarning tog'li hududlarida ot, ho'kiz, sayga, yovvoyi eshak o'rmon hududlarida esa los, bug'u, cho'chqa, bo'ri, tulki va boshqalar yashashgan. Muzlik va muzlik oldi shimoliy hududlarida sodir bo'lgan tabiiy o'zgarishlar er yuzining janubiy mintaqalarida unchalik sezilmaydi. Bu erning flora va faunada ham tub o'zgarishlar kuzatilmagan.

So'nggi paleolit davri takomillashgan tosh qurollari mezolit davri qurollarining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Evrosiyoning janubiy mintaqalarida hajmi 1-2 santimetrdan iborat geometrik shaklli tosh qurollarda foydalanila boshlaydi. Sigmoid, trapeiya va uchburchak shaklli kremen (choqmoq tosh) qurollari hajmi jihatdan ancha kichik bo'lib, ular arxeologiya fanida mikrolitlar (yun. mikros-kichik, litos-tosh), deb nomlanadi. Bunday tosh bo'lakchalaridan odatda qadama sifatida qo'llanilgan. Mikrolitlar odat biror vosita yog'och yoki suyakga qotirilib, kamon o'qi uchi, boshqoli o'simliklarni o'rish uchun o'roq sifatida foydalanilgan. Shuningdek, teriga ishlov berish kabi nozik ishlarini bajarishda qurol sifatida ham ishlatish mumkin bo'lgan. Mikrolit texnikasiga asoslangan tosh qurollar dastlab janubiy o'lkalarda aholisi orasida tarqala boshlagan bo'lsa, shimoliy mintaqalarda so'nggi paleolit davri an'anasiga ega bo'lgan plastikasimon (yapaloq shakldagi) tosh qurollardan foydalanish davom etgan. Bu hududlarda mikrolitlar nisbatan keyinroq vujudga keladi. Bu davrda mikrolitlar bilan birgalikda makrolit (yun. makros-katta, litos-tosh)) qurollari, xususan tosh boltalar ham paydo bo'ladi. Bunday qurollarning ahamiyati o'rmon mintaqalari va tog'li hududlarda yuqori bo'lgan. Tosh boltalar yirik toshlarni tekis yorish va sirtini silliqlash asosida amalga oshirilgan.

Mezolit davri tabiiy-geografik o'zgarishlari ibtidoiy davr kishilarining turmush tarzini keskin o'zgarishiga olib keladi. Jamoa a'zolari mahalliy hududlarda tarqagan fauna va florasini hususiyatlaridan kelib chiqib o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllarini tashkil etishib, bu sohada ma'lum ixtisoslashishni keltirib chihargan. Natijada ibtidoiy ajdodlarimiz ovchilik, baliqchilik va termachilik yoki ularning ikki turi bilan shug'ullanib kun kechirishgan.

Dukkakli o'simliklarni termachlashga asoslangan qabilalar boshqoli o'simliklarni madanishlashtirish, ovchi qabilalar esa yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirib, oxir oqibat ilk ishlab chiqarish-dehqonchilik va chorvachilik shakllarining vujudga kelishiga zamin yaratishgan. Bu jarayon nisbatan ilgariroq mezolit davrining o'rtalarida Yaqin va O'rta Sharq hududlarida sodir bo'lgan.

Old Osiyo, xususan, Yaqin va O'rta Sharq hududlari pleystoen davri muzligidan ancha uzoq bo'lib, iqlim sharoiti nisbatan issiq va namgarchilik miqdori yuqori bo'lgan.

Bunday sharoit esa hududda boy flora va faunasining qaror topishi uchun imkoniyat yaratgan. Bu o'z navbatida mezolit davri ilgor xo'jalik shakllari va madaniy an'analarining vujudga kelishini ta'minlashi tabiiy edi. Shuningdek, bunday qulay sharoit hududda mezolit an'analarining uzoq davom etmaganligiga sabab bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharq hududlarida mezolit davri qisqa muddat davom etib, ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga juda erta o'tishgan.

### **Neolit davri ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi.**

**Neolit davri hususiyatlari.** Neolit - (yun. neos-yangi, litos-tosh, yangi tosh asri) o'zoq davom tosh asrining so'nggi bosqichi. Neolit atamasini 1865 yilda ingliz arxeologi Lebbok taklifi bilan arxeologiya faniga kiritilgan. Neolit davrda kishilar jamoasi er yuzining nisbatan kengroq hududlarni egallashib, turli geografik sharoitlarga mos xo'jalik shakllari bilan kun kechirishlariga to'g'ri kelgan. Bu esa xo'jaligi va moddiy madaniyatiga ko'ra o'zaro keskin farq qiladigan madaniyatlarning qaror topishiga olib kelgan. Neolit davrida tabiiy sharoiti qulay bo'lgan Old Osiyo hududida mezolit davrining oxirlaridayoq namoyon bo'la boshlagan ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari vujudga kelgan bo'lsa, nisbatan sovuq o'lkalar aholisi xo'jaligining o'zlashtiruvchi shakllari saqlanib qoladi. Xo'jalik shakllari esa o'z navbatida ularning moddiy madaniyatida ham ma'lum tafavutlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Er yuzining barcha hududlaridagi xo'jalik sohasidagi keskin tafavutlar neolit davri madaniyatlarini belgilashda ayrim noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Neolit davrini belgilashda qanday hususiyatlar asosiy omil bo'lib xizmat qilish to'g'risidagi masala tadqiqotchi arxeolog olimlarning munozaralariga sabab bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilarlar neolit davrini belgilashda xo'jalik va madaniy hususiyatlaridan kelib chiqishni taklif qilishsalar, boshqalar esa mazkur davr uchun xos bo'lgan barcha hususiyatlarni e'tibor olgan holda tadrijiylik asosiy o'rin egallashini ta'kidlashadi. Shu nuqtai nazardan neolit davri xronologik chegarasini er yuzining barcha hududlari uchun ma'lum sanalarni qo'llab bo'lmaydi. Tabiiy sharoiti qulay bo'lgan janubiy o'lkalarda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari, neolit davri hususiyatlari mil. avv.VIII-VII ming yilliklarda, boshqa hududlarda esa kechroq namoyon bo'lib, mil.avv. III-II ming yilliklarga qadar davom etganligini kuzatish mumkin.

Neolit davrida toshga ishlov berish yanada takomillashgan va mukammal usullari vujudga kelib, ularning turi va soni yanada ko'payadi. Bu asosan kremen-chaqmoqtosh ko'p uchraydigan Evrosiyoning shimoli-g'arbiy hududlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Kremen kam uchraydigan janubiy o'lkalar, xususan, O'rta Osiyoning ayrim hududlarida tosh qurollariga ishlov berishning arhaik shakli saqlanib qoladi. Janubiy o'lkalarda mikrolit texnikasi takomillashgan bo'lsa, shimolda toshga ishlov berishning so'nggi paleolit davridan ma'lum bo'lgan "plastinkasimon" usuli saqlanib qoladi. Shimolning o'rmon dashtlarida makrolit, xususan tosh boltalar keng tarqaladi. Yog'och va suyaklarning turli Mehnat qurollari va qurol-yarog'lar tayyorlashdagi muhim xom ashyo sifatidagi ahamiyati yanada ortadi.

Sopol buyumlarining paydo bo'lishi neolit davrining muhim kashfiyotlaridan biri bo'lib, bu ixtiro dehqon jamoalari tomonidan qilingan. Dastlabki sopol buyumlari mahalliy hudud hususiyatlaridan kelib chiqib mato g'oliblarda yoki tasmaimon va arqonsimon usullarda yasalgan. Birinchi holatda tuproq yoki qum solingan mato atrofi loy bilan suvalib yasalgangan buyumning ichki tomonida matoning izlari qolgan. Ikkinchi holatda tasma shakliga keltirilgan loy biriktirilib idish xosil qilinadi. Uchinchi holatda arqon shakliga keltirilgan loy aylantirib, idish shakli xosil qilinib, ichki va tashqi tomonlaridan silliqlanadi. Sopol buyumlari quritilgandan so'ng sirtiga naqshlar berilgan va pishirilgan. Neolit davrda sopol buyumlarini ochiq olovda pishirishgan. O'troq dehqon jamoalarining sopol buyumlar odatda tabiiy bo'yoqlarda berilgan turli naqshlardan iborat bo'lgan. Shimoliy hudud aholisi ko'p qollarda tasmaimon va arqonsimon usulda yasalgan sopol buyumlari sirtiga o'yma yoki chizma naqshlar berish an'anasi ustun bo'lgan. Ko'pincha eshma arqon shaklida ishlangan dumoloq tagli sopol buyumlar erga botirib qo'yish uchun qulay bo'lgan. Sopol buyumlarning eng qadimgi namunalari Yaponiyadagi mil. avv. IX-VIII ming yilliklarga oid yodgorlik madaniy qatlamlarida uchraydi.

Neolit davrida turli o'simliklarning poyalaridan to'r to'qish paydo bo'lib, chuchuk suvli ko'llarga boy bo'lgan baliqchilik rivojlangan hududlarda ulardan keng foydalanilgan. hayvon junlaridan matolar tayyorlash, terilarni oshlash va ulardan ustki kiyim tayyorlash dehqon-charvador aholisining qo'shimcha mashg'uloti sanalgan.

Xo‘jalikning ishlab chiharuvchi shakliga o‘tish Evrosiyoning janubiy o‘lkalarida iqlim sharoiti nisbatan ancha qulay bo‘lgan mintaqalarda, aniqroqi g‘arbiy Osiyo hududida sodir bo‘lishi mumkin edi. hozirgi payda ishlab chiharuvchi xo‘jalik shakllari erta qaror topgan ilk markazlar Yaqin va O‘rta Sharq va Kichik Osiyolardan iborat bo‘lib, bu hudud arxeologiya fani tili bilan “serunum yarimoy hududi”, deb ataladi.

**O‘rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari.** Paleonologik ma’lumotlarga ko‘ra mil.avv VIII-VII ming ming yilliklardan “Lavlakon namgarchiligi”, davri boshlangan. Bu davrda issiq va namchil iqlim sharoiti hukmron bo‘lib, yillik yog‘ingarchilik miqdori 250 dan 450 sm. oralg‘ida bo‘lgan. hozirgi Qizilqum cho‘li hududlari keng yaproqli o‘rmonzordan tashkil topgan bo‘lib, ko‘llarga boy bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida hayvonat dunyosining ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratgan.

Kopetdagning shimoliy yonbag‘irlarida ham shunga o‘hshash tabiiy-iqlim sharoiti mavjud bo‘lib, hozirgiga nisbatan ancha sersuv bo‘lgan. Bu esa dehqonchilik xo‘jaligini rivojlanishi uchun qulaylik yaratgan.

Tog‘ tizmasidan oqib tushayotgan daryo o‘zanlari boy tarkibiga ega bo‘lgan to‘qayzor bo‘lgan. Mazkur hududlardan aniqlangan arxeologik yodgorliklarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qumlik chegarasi hozirgiga nisbatan ancha shimolroqda joylashgan bo‘lgan.

Mil.avv. V ming yillikga kelib iqlim sharoiti quriqlashib boradi. Ishlab chiharuvchi xo‘jalik nisbatan erta shakllangan boshqa bir hudud shubhasiz O‘rta Osiyo hisoblanadi. Janubiy Turkmaniston hududida mil. avv. VII ming yillikning oxirlarida mahalliy Sharqiy Kaspiybo‘yi mezolit davri madaniyati asosida ishlab chiharuvchi xo‘jaligi paydo bo‘ladi. Bu erda chorvachilikga asoslangan Jebel, dehqonchilikga asoslangan Joytun madaniyatlari shakllanadi. Bir tomondan Turkmanistonning issiq qaroratli tabiiy-geografik sharoitning mavjudligi mezolit davri mahalliy aholisining ishlab chiharuvchi xo‘jalik shakliga o‘tishlari uchun asos bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ilk dehqonchilik markazlariga yaqinligi sababli ularning ma’lum ta’siri mazkur jarayonning tezlashishiga ta’sirini o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. Joytun madaniyatiga oid yodgorliklarning quyi qatlamlaridan topilgan tosh qurollari ishlanish usuli mezolit davri Sharqiy Kaspiybo‘yi yodgorliklarining yuqori qatlamlaridan

topilgan qurollar bilan aynan bir xil. Demak, Sharqiy Kaspiy bo'yining mezolit davri ovchiligi negizida chorvachilikga asoslangan Jebel madaniyati va termachiligi asosida esa dehqonchilikga asoslangan Joytun madaniyati shakllanganligi shubhasiz.

O'rta Osiyoning shimoliy hududlari va nisbatan tog' va tog' oldi hududlarida xo'jalikning ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi shakliga ega bo'lgan madaniyatlar rivojlanib, ushbu xo'jalik shakli uzoq muddat saqlanib qoladi. Bu o'z navbatida mazkur hududlarda tabiiy sharoitning qulayligi ishlab chiharuvchi xo'jalik shakliga o'tish uchun zarurat qoldirmaganligidan dalolat beradi. Mazkur jarayon zamonaviy paleoiklimshunoslik fanida taxminan mil.avv. VIII-III ming yilliklarda "Lavlakon namgarchiligi" nomi bilan yuritilgan qulay tabiiy sharoit davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo'yi va Qizilqum hududlarida neolit davri terib termachilik va baliqchilik xo'jaliklariga asoslangan Kaltaminor doirasidagi madaniyat, Zarafshonning o'rta oqimida ovchi va terib termachilikga asoslangan Sazag'on madaniyati, Farg'ona vodiysida terib termachilik va baliqchi asoslangan neolit davri jamoalari madaniyatirivojlanishi va O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tog' va tog' oldi hududlarida termachilik va ovchilikga asoslangan Hisor madaniyatlarining rivojlanishi kuzatiladi.

Umuman, neolit davrida insoniyat tabiatdagi mavjud bo'lgan tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini o'zlashtirishdan, ularni sun'iy ravishda ishlab chiqarishning xo'jaligi-dehqonchilik va chorvachilik shakllariga o'tishadi. Bu jarayonni ingliz arxeologi V.G.Chayld «neolit inqilobi», deb hisoblaydi.

Xo'jalik sohasidagi yangi yutuqlar keyinchalik er yuzining barcha hududlariga tarqalgan.

Suriya-Falastin neolit davriga oid ilk o'troq dehqonchilik qishlog'ining o'rni O'lik dengizdan Shimolda Iordan daryosi vodiysida joylashgan Tell as Sulton yodgorligida o'z aksini topgan. Bu yodgorlik Bibliyada keltirib o'tilgan qadimgi Ierixon shaxrining o'rni xisoblangan. Arxeologik qazish ishlari natijasida mil. av. 8-7 ming yilga oid xayot uzliksiz ikki kompleks Ierixon A, B komplekslari aniqlangan. Manzilgoh 4 ga iborat bo'lib, toshdan terilgan aylana devor bilan o'rab olingan.

Qurol motiga va o‘roqlarning dastalari dexqonchilikning paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. Shuningdek Ierixon A dan bir qatorli arpa va bug‘doylarning izlari qurilish materiallarida saqlangan.

Kichik Osiyo (mil av. 8 ming yil oxiri -7 ming yil boshlari) Xojilar manzilgoxining quyi qatlamidan xom g‘ishtdan qurilgan uylarning o‘rni aniqlangan. Uylarning poli loysuvoq qilingan va devorlari bilan birgalikda qizil rangda bo‘yalgan. Geometrik shaklda sopol idishlar uchramaydi. Idishlar toshdan yasalgan. Suyakdan bigiz, kremen va obsidiandan o‘roq uchi qadamalari, silliqilgan tosh boltalar yasalgan. Ikki qatorli arpa ekilgan. Shuningdek bir qatorli yovvoyi bug‘doylarni temachlash xam yordamchi xo‘jalik hisoblangan. Bu erda xam Ierixonliklar kabi murdalardan uyda ko‘mishgan.

Old Osiyodagi ilk dehqonchilikning uchinchi bir markazi Shimoliy Mesopotamiya va unga tutash bo‘lgan Shimoliy Eronning tog‘li xudlari hisoblanadi. Bu erda neolit davrida Jarmo madaniyati (VII-VI ming yilliklar) yoki ayrim tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko‘ra zagros madaniy birligi turidagi madaniyati rivojlangan. Jarmo madaniyatiga tegishli Jarmo yodgorligidan tashqari Zagros tog‘larining Iroq qismida Telshimshara, uning Eron qasmida esa Tepaisarob va Tapaiguranlar mavjud. Markaziy Osiyoning janubiy o‘lkalarida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning vujudga kelishi masalasida ham turli yondoshuv va qarashlar mavjud. Ma’lumki, Markaziy Osiyoning Janubiy Turkmanistondagi neolit davri ilk ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakliga asoslangan Joytun madaniyatining ildizlarini ayrim g‘arblik olimlar Eron hududi bilan bog‘lashgan.

Sharqiy Kaspiybo‘yi hududlarida mezolit davrining oxirlaridayoq yovvoyi hayvonlar xonakilishtirilib, neolit davrida xo‘jalikning chorvachilik shakli vujudga kelganligi arxeologik jihatdan asoslangan.

Janubiy Turkmanistonning issiq haroratli tabiiy-geografik sharoiti mahalliy neolit davri jamoasining ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning ilk shakliga o‘tishlari uchun asos bo‘lgan. Ilk ishlab chiqarish markazlariga o‘lkaning yaqinligi ham mazkur jarayonning tezlashishida o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazgan.

Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo‘yi va Qizilqum hududlarida taxminan mil.avv. VII-III ming yilliklarda hukmron bo‘lgan “*Lavlakon namgarchiligi*” davri qulay iqlim

sharoitida tabiiy oziq-ovqat zahiralarning ko'pligi o'zlashtiruvchi xo'jalik saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Mazkur hududlarda yashagan qabilalar xo'jalikning ovchilik, terib termachilik va baliqchilik shakllari bilan shug'ullanishib, kun kechirishgan.

Markaziy Osiyoning shimoliy hududlari va nisbatan tog' va tog' oldi hududlarida xo'jalikning ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi shakliga ega bo'lgan madaniyatlar rivojlanib, ushbu xo'jalik shakli uzoq muddat saqlanib qoladi.

Neolit davrida Janubiy Turkmaniston hududida ilk ishlab chiqarish xo'jaligiga asoslangan Joytun madaniyati, Amudaryoning quyi oqimi, O'zboy o'zani, Sariqamish ko'li atrofi, Orolbo'yi va Qizilqum hududlarida o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllariga asoslangan *Kaltaminor* madaniyati, Zarafshonning o'rta oqimida ovchi va terib termachilikga asoslangan *Sazag'on* madaniyati, Farg'ona vodiysida terib termachilik va baliqchi asoslangan neolit davri jamoalari madaniyati, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tog' va tog' oldi hududlarida termachilik va ovchilikga asoslangan *Hisor* madaniyatlarini yaratgan qabilalari yashaganlar.

Joytun madaniyati (mil. avv. VII–VI ming yilliklar) Markaziy Osiyo hududidagi neolit davrining ilk o'troq dehqonchilik madaniyati. Bu madaniyatga oid arxeologiya yodgorliklari Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida Kopetdag va Qoraqum cho'li oralig'ida qadimdan o'troq dehqonchilik xo'jaligini yuritish uchun qulay bo'lgan issiq iqlimli hududlarda joylashgan.

Bu madaniyatga oid birinchi o'rganilgan Joytun manzilgohi Ashgabat shahridan 30 km. shimolda qum barxani tepaligi joylashgan bo'lib, keyinchalik Markaziy Osiyo hududida neolit davrining mashhur bo'lgan ilk dehqonchilik madaniyatining nomlanishiga asos bo'lgan yodgorlik sanaladi. Bu yodgorlik dastlab qisman arxeolog olim B.A.Kuftin va keyin V.M.Masson tomonidan to'liq ochib o'rganilgan. Hozirgi paytda Joytun madaniyatiga oid yoki neolit davri madaniy qatlamlariga ega bo'lgan 17 ta arxeologiya yodgorliklari qayd qilingan bo'lib, ularda B.A.Kuftin va V.M.Massondan tashqari O.K.Berdiev, A.A. Maruŷenko, O. Lollekova va boshqa olimlar ham tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Jebel madaniyati Turkmanistonning janubiy-g'arbida Sharqiy Kaspiybo'yi hududlarida mezolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatning davomida

chorvachilikka asoslangan Jebel madaniyati vujudga keladi. Bu madaniyat nisbatan yaxshi o'rganilgan Jebel yodgorligi nomi bilan yuritiladi. Bu erdagi mezolit davriga oid Jebel, Damdamchashma 1,2, Qaylu, Defichig'anoq va boshqa yodgorliklarning yuqori qismidagi neolit davriga oid madaniy qatlamlari mil. avv. VII-V ming yilliklar bilan sanalangan.

Kaltaminor madaniyati. (mil.avv.VII ming yillik oxiri-III ming yilliklar) dastlab 1939 yili S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi Oqchadaryo o'zani hududi Yonbosh yodgorligini o'rganish natijasida mazkur madaniyat aniqlangan.

Mil.avv. VII-III ming yilliklar Markaziy Osiyoning hozirgi cho'l hududlarida odamlarning yashashlari uchun juda qulay tabiiy-geografik sharoiti hukmron bo'lgan. Lavlakon namgarchiligi davrida Quyi Amudaryo, O'zboy va Sariqamish o'zanlari bilan birgalikda Markaziy Qizilqum, quyi Zarafshon, Sirdaryoning quyi oqimi hududlari ibtidoiy qabilalar yashaganlar. Ushbu hududlardan neolit davri ibtidoiy qabilalarining sal kam ikki mingga yaqin arxeologik yodgorliklar aniqlanib, ularning kam sonli qismida arxeologiya tadqiqot ishlari olib borilgan. Markaziy Osiyoning katta xududiga yoyilgan ibtidoiy qabilalarning ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik va moddiy madaniyatidagi yaqinlik ularni umumiy nom bilan Kaltaminor madaniyati majmuasiga birlashtiradi.

Sazag'on madaniyati (mil.avv. VII-IV ming yilliklar.) O'rta Zarafshon vohasida, Zarafshon tizmasining g'arbiy qismida, Qoratepa tog'i shimoliy yonbag'irlari hududlarida mezolit-neolit davrlariga oid ibtidoiy qabilalar madaniyati. Bu madaniyatga tegishli dastlabki yodgorlik Samarqand shahridan 27 km. Janubda, Sazog'onsoyning yuqorisida, Qoratepa massivining shimoliy yonbag'rida 1966 yili arxeolog olim O.Ibragimov tomonidan aniqlanib, shu yili D.N.Lev boshchiligida arxeologik tadqiqot guruhi tomonidan tekshirish ishlari boshlangan.

Hisor madaniyati (mil.avv. V ming yillik oxiri – III/II ming yillik) Markaziy Osiyoning tog' hududlarida tarqalgan neolit davri madaniyati. Tojikistonning g'arbiy tog' oldi hududlarida A.P. Okladnikov va V.A. Ranov kabi arxeologlar tomonidan bu madaniyatga oid 100 dan ortiq makonlar qayd qilingan. Ular qisqa mudatli, mavsumiy va doimiy yashash manzillaridan iborat bo'lgan. Qisqa muddatli va mavsumiy makonlar tog' oldi hududlarida joylashgan jamoa a'zolarining ov mavsumida yashagan kulbalari

tashkil qilgan. Doimiy yashash makonlari Kofirnahar, Vaxsh va ularning irmoqlari vodiylarida joylashgan.

## **2-MAVZU: O‘RTA OSIYONING TOSH VA PALEOMETALL DAVRI ARXELOGIYASI MASALALARI**

**(2 soat).**

***Reja:***

2.1. O‘rta Osiyoning tosh davri arxeologiyasi: yangi tadqiqotlar va xronologiya masalalari.

2.2. O‘rta Osiyoning paleometall davri arxeologiyasi masalalari: tadqiqotlar ko‘lamining o‘sishi.

**Tayanch iboralar:** eneolit, qurilish, me‘morchilik, hunarmandchilik, taraqqiyot, kulolchilik, metall, bronza, texnologik, taraqqiyot, shahar, davlat, etno-madaniy, migratsiya, urbanizatsiya, davlatchilik.

**2.1. O‘rta Osiyoning tosh davri arxeologiyasi: yangi tadqiqotlar va xronologiya masalalari.**

**O‘rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari muammolari.**

Insoniyatning qadimgi metall davrini hamrab olgan bosqichidan iborat bo‘lib, dastlabki mis va bronzadan foydalana boshlagan davrlardan iborat. Eneolit (lot. “aeneus” - mis, yun. “litos”-tosh) - tarjimada mis-tosh, degan ma’noni anglatib, muqobil atama sifatida ham ishlatiladi. Ayrim mamlakatlar ilmiy adabiyotlarda bu davrga nisbatan halkolit (halko-mis) atamasi ham qo‘llaniladi.

Eneolit (mil. avv.VI ming yillik oxiri - III ming yillikning boshlari) Bu davrning katta yutuqi kishilarning dastlabki metal bilan tanishib, tosh qurollari bilan birgalikda mis qurollaridan ham foydalana boshlanishidir. Mis qurollari tosh qurollariga nisbatan ancha takomillashgan bo‘lsada, misdan kuchli va og‘ir qurollar yasab bo‘lmagan. Shuning uchun misdan yasalgan qurollar kishilar ijtimoiy hayotida yuqori mavqega ega bo‘lmadi, tosh qurollar o‘z ahamiyatini saqlab qoldi. Bu davrda kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lib, tub burilish davri yasalishiga sabab bo‘ladi.

Insoniyat dastlabki metall - misdan bilan bundan 10 ming yil burun tanishib, bunday buyuk voqealik janubi-g‘arbiy Anatoliya (Turkiya) sodir bo‘ladi. Arxeolog

olimlar bu erdagi neolit davri Chayonyu tepesi yodgorlik harobalaridan olimlar yuzlab mis bo‘lakchalarini va ko‘pgina mis ma‘dani oskolkasi-malahitni topib o‘rganilib, ulardan bir qanchasi munchoq sifatida foydalanilgan. Markaziy Anatoliyaning janubida joylashgan mil.av. VIII ming yillikga oid Ashikli Guyuk manzilgohidan ko‘p sonli mis zeb-ziynat buyumlari topilgan. Kichik Osiyoning Chatalquyuk va Hojilar manzilgohlarning neolit davri madaniy qatlamlari moddiy topilmalari orasida mis va qalayidan yasalgan buyumlar ham muhim o‘rin tutadi. Shimoliy Mesopotamiyaning keyingi bosqichlarga oid Yarimtepa I, II va Tell Mazgaliya manzilgohlaridan mis buyumlari topib o‘rganilgan.

Mis sof holda tabiatda kam uchraydigan ma‘dan bo‘lib, insoniyat samoviy meteoritlar tarkibida bo‘lgan namunalar orqali tanishishgan. Kishilar misga ishlov berish malakasiga ega bo‘lmagan dastlabki paytlarda go‘yo toshni ishlash usuli kabi muomalada bo‘lishib, uni sindirishga harakat qilishgan. Umuman, qadimgi ma‘dan - misdan foydalanishning to‘rt bosqichda ajralib turadi. Ilk bosqichda urib shakl berish orqali, keyin esa olovda toblab shakl berish ko‘nikmasi egallangan. Natijada uchinchi bosqichda eritish malakasi egallanib, rudalarni keng o‘zlashtirish ishlari rivojlanadi. Bu bosqich malakasi asta-sekin bronza quyish texnologiyasini o‘zlashtirish bilan yakun topadi.

**Eneolit davri umumiy tavsifi.** Eneolit ( mil. avv. V-III ming yilliklar) - bu dastlabki metal (yunon. enius - «mis», litos - lot. «tosh») davri bo‘lib, mis-tosh va halkolit kabi atamalalar ham qo‘llaniladi. Bu davrning muhim jihati dastlabki metallardan keng foydalana boshlanishidir. Arxeologik ma‘lumotlarning guvohlik berishicha Janubi-sharqiy Anatoliyada bundan 9-10 ming yillar burun dastlabki misdan ishlangan buyumlarning namunalari aniqlangan. Bu erdagi Chayonyu tepesi yodgorligining neolit davri sopol buyumlar paydo bo‘lgunga qadar madaniy qatlamlaridag tosh imoratlar harobalaridan yuzlab mis bo‘laklari va bir necha malahit (tarkibida mis minerali bo‘lgan yashil rangli tosh) bo‘laklarini aniqlangan. Ushbu topilmalarning ayrimlar munchoq sifatida ishlangan. Markaziy Anatoliya hududidagi mil. avv. 8 ming yilliklar bilan sanalgan Ashikli Guyuk yodgorligidan ham bir qancha misdan ishlangan taqinchoqlar aniqlanadi. Mis va qo‘rg‘oshin Shimoliy

Mesopotamiyadagi Yarimtepa 1,2 va Tellmazgaliya yodgorliklaridan ham aniqlangan. Mis buyumlaridan Chatal Guyuk topilmalari muhim o‘rin egallaydi. Bu yodgorlik qadimiy imoratlari va ibodatxonalar harobalaridan ko‘plab mis va qo‘rg‘oshin nushalari aniqlangan.

### **Bronza davri xususiyatlari va bronza metallurgiyasining texnologik taraqqiyoti.**

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo‘jaligida buyuk o‘zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, ma‘naviy hayotida ham tub o‘zgarishlar yasadi.

Bronzaning tarkibi mis va qalay qorishmasidan iborat bo‘lgan. Eng yaxshi bronzaning tarkibida 90 % mis va 10 % qalay bo‘lgan. U dastlab miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Mesopotamiyada (ikki daryo oralig‘ida) kashf etilgan. Bronza qurollar qattiq va ularga ishlov berish oson bo‘lganligi uchun mis qurollarni siqib chiqardi. Shuningdek bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gradusda erigan. Uning bunday past haroratda erishi, uning har bir xo‘jalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat, jangovor qurollarning turi ko‘payishiga va samaradorligining oshishiga olib kelgan.

Bronza maxsus qalin sopol idish—tigellarda eritilib, sopol qoshiqlar orqali tosh va sopoldan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiy o‘zgarishi surtilgan va bronza qolipdan oson ajralgan .

Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eroning janubi-g‘arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O‘zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib, miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek jamiyat taraqqiyoti ham o‘ziga xos tarzda davom etgan. O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. O‘zbekistonning janubiy—sharqiy va markaziy hududlarida, ya‘ni Samarqand, Farg‘ona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari so‘nggi bronza davriga kelganda vujudga keldi. Ungacha bu hududlarda ko‘chmanchi chorvadorlar

madaniyati, ya'ni Andronova va Tozabog'yob madaniyatlari aholisi yashab kelgan. O'zbekistonning shimoliy hududlarida cho'l va dasht chorvachilik xo'jaligi etakchi o'rinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida so'nggi bronza va ilk temir davrida chorvador qabilalar o'troqlashib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va ular asosida qishloqlar tashkil etiladi.

Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning 2 chi yarmida sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi. O'rta Osiyoning janubiy va janubi-g'arbiy rayonlari dehqonchilik madaniyatining o'choqlariga aylandi. Uning cho'l va dasht zonalarida chorvadorlar va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy, markaziy hududlaridagi daryo etaklarida dehqonchilik madaniyati tarkib topa boshladi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha bo'lib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat bo'lgan.

### **O'rta Osiyoda bronza davri urbanizatsiyasi va davlatchiligi masalalari.**

Ilk shaharlarning paydo bo'lishida ko'plab ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi omillar sabab bo'lishiga qaramay turli sharoitlarda u yoki bu guruh sabablar nisbatan ustunlik qiladi. Undan tashqari ilk shahar qivilizatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo'lishi va ularning o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Aynan turli shart-sharoitlar, turli shakldagi aholi punktlari, ko'chmanchi aholi yashash hududlari, o'troq aholi bilan ular o'rtasidagi chegaraviy hududlar-bularning barchasi aholi hududiy rayonlashuvining (ma'lum hududlarda ma'lum turmush tarzi yuritgai aholi joylashuvi) asosi hisoblanadi. Shuningdek, aholining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan (dehqonchilik, hunarmandchilik va boshq.) faoliyati ham rayonlashuvni belgilab beradi.

Tadqiqotlar natijalarini ilmiy-qiyosiy tahlil qilish natijasida O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va o'choqlar rayonlashuvini quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

1. I davr-mil. avv. III-II ming yillik birinchi yarmi-Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Namozgoh), Yuqori Zarafshon (Sarazm), Janubiy O'zbekiston (Sopollitepa);
2. II davr-mil. avv. II ming yillikning o'rtalari-Janubiy Turkmaniston (Gonur), Janubiy O'zbekiston (Jarqo'ton);
3. III davr-mil. avv. II ming yillik oxiri-I ming yillikning o'rtalari- Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mil. avv. III ming yillikning o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning Qizilqum, Qorakum cho'llarining ichkarilari, Pomir hamda Oloy tog'larining etaklari aholi tomonidan o'zlashtirilish boriladi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimoli hamda shimoli-sharqida yashagan aholi asosan chorvachilik xo'jaligi yuritganlar. Bu hududlardan topib tadqiq etilgan Andronov, Tozabog'yob, Zamonbobo, Qayroqqum kabi yodgorliklar bronza davri o'ziga xos jarayonlaridan dalolat beradi. O'rta Osiyoning janubiy qismida yashagan aholi o'troq turmush tarziga o'tib asosan dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Bu hududlarda aholining Namozgoh, Sopolli, Dashli, Oltintepa, Gonur kabi o'troq dehqonchilik madaniyatlari shakllanib taraqqiy etadi. Undan tashqari aynan janubiy hududlarda qadimda Baqtriya, So'g'diyona, Girkaniya, Parfiya, Ariya va Marg'iyona kabi tarixiy-madaniy viloyatlar shakllanadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, uzoq dehqonchilik xo'jaliklari yuritgan aholi bronza davridayoq alohida vohalar yashab, daryo quyi havzalarini o'zlashtirganlar. Aholining bunday joylashuv tartibi tabiiy-sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan (misol uchun, suv resurslari birmuncha chegaralangan) O'rta va Yaqin Sharq qadimgi hududlari uchun xosdir.

So'nggi bronza va ilk temir asri O'rta Osiyo tarixida keskin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu davr jamiyat hayotida ibtidoiy munosabatlar inqirozga uchrab yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlana boshlaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan ilk shaharlarning shakllanish jarayoni nihoyasiga etib rivojlanish bosqichiga o'tadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar e'tirof etgan dastlabki qivilizatsiyalar, ilk shaharsozlik

madaniyati, davlatlar paydo bo'lishi jarayonlari o'rtasida dialektik bog'liqlikni dastlabki shahar markazlari o'choqlarining rayonlashuvi jarayonlarini tahlil etganimizda ham kuzatishimiz mumkin.

O'rta Osiyoning eng qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati mintaqaning janubi-g'arbida, Kopetdog'ning shimoliy tog' oldi tekisligida paydo bo'ladi. Bu jarayonga ikkita muhim omil-kichik vohalarda dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay sharoit hamda dunyo tarixida dastlabki dehqonchilik o'chog'lari bo'lgan Old Osiyo va Eron bilan qadimiy uzviy aloqalar asos bo'ldi. O'tgan asrning 60-yillarida olib borilgan tadqiqotlar Kopetdog' tog' oldi tekisliklarida Qadimgi Sharq ko'rinishidagi qadimgi madaniyat rivojlanganligi haqida masala ko'tarilishiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoning janubida keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, Murg'ob vohasida ochilgan mil. avv. II ming yillik madaniyati va Amudaryoning o'rta oqimi madaniyatlari ushbu markazlarning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Bu tadqiqotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'rta Osiyoning janubiy hududlari qadimgi Sharq ko'rinishidagi yuqori darajali madaniyat sohiblari bo'lgan o'troq jamoalar tomonidan ancha ilgari o'zlashtirilgan. Aniqlanishicha, dastlabki dehqonlar Kopetdog' tog' oldi tekisligi hududlari bilan chegaralanib qolmasdan eng yuqori rivojlanish darajasi jarayonida Murg'obning qadimgi havzasi hududlarini o'zlashtirib, Zarafshonning yuqori oqimi hududlarigacha boradilar. Bu hududlardan Janubiy Turkmaniston so'nggi eneolit davri madaniyatiga xos Sarazm manzilgohi o'rganilgan. Ushbu ko'p sonli va turli-tuman ma'lumotlar O'rta Osiyo, xech bo'lmaganda uning janubiy viloyatlari boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi ilk dehqonchilikdan dastlabki qadimgi madaniyat rivojlanish konuniy jarayoni bo'lib o'tgan qadimgi madaniyat o'chog'i degan fikrlarni yana bir marta isbotlaydi.

### **3-MAVZU: O'RTA OSIYONING ANTIK DAVRI ARXELOGIYASI MASALALARI (2 soat).**

#### ***Reja:***

- 2.1. Antik davri arxeologiyasining o'rganishda yangicha yondoshuvlar va ilmiy nazariyalar
- 2.2. O'rta Osiyoning antik davri arxeologik yodgorliklarini tasnifi.

**Tayanch iboralar:** ilk temir, antik, tarixiy-madaniy, etno-madaniy, migratsiya, antik, ixtisoslashish, zargarlik, san'at, haykaltaroshlik, rang-tasvir, torevtika.

### **Ilk temir davri qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi.**

O'rta Osiyoning temir davri tarixini o'rganishda yozma manbalarning kamligi hamda to'liq emasligini e'tiborga olish lozim.

O'rta Osiyo va O'zbekistonning qadimiy viloyatlari jamiyati to'g'risida muhim yozma manbalar – “Avesto”, (mil. avv. IX-VIII, VII-VI asrlar), ahamoniylar davri (mil. avv. VI-V asrlar) yozma yodgorliklari va qadimgi yunon tarixshunoslari (mil. avv. V-IV asrlar) hiqoya qiladi. Afsuski, “Avesto”ning eng qadimgi qismlari bizning zamonamizgacha etib kelmagan. Mazkur to'plam mi-lodiy III-VII asrlarda tahrir qilingan. “Avesto”ning keyingi bizgacha etib kelgan qismlari to'rt kitobnigina o'z ichiga oladi. Yasna (“qurbonlik”, - duolar yoki qurbonlik keltirish), Yasht (“qadrlash”, “ulug'lash” - ma'budlar uchun madhiyalar), Videvdat (“devlarga qarshi qonun”), Visprat (“barcha hukmdorlar”). Bu kitoblar yozilgan til “Avesto” tufayligina ma'lum bo'lib, avesto tili deyiladi.

Ko'p qatlamli, murakkab manba hisoblangan, “Avesto” asrlar davomida shakllanib borgan. “Avesto”ning eng qadimiy qismlarida keng hududda joylashgan jamiyat tasvirlangan bo'lib, mazkur jamiyat haqida hali yozuv mavjud bo'lmagan zamonlarga oid tasavvurlar saqlangan. O'rta Osiyo uchun “Avesto” ma'lumotlari arxeologik manbalar bilan solishtirilgan holda keng davriy chegara oralig'ida - bronza davridan tortib qadimgi dunyo - antik davrgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tarixni yoritishda foydalaniladi.

“Avesto” zardo'shtiylik dinning mo'qaddas kitobi bo'lib, u Zaratushtra (Zardo'sht) dinidagi xalqlarning shariat qonunlari majmuidan iborat. Zaratushtra (yunoncha Zoroastr) ismi bilan atalgan zardo'shtiylik (zaratushtrizm, zoroastrizm) O'rta Osiyoda islom dini joriy etilishidan oldin keng tarqalgan “Avesto”ning ba'zi bir qismlarida Zaratushtra “zaotara” yoki “ataurvon”, ya'ni kohin tarzida tilga olinadi. Zardushtiylik

dini tarixi bo'yicha etakchi mutaxassislar mazkur holatga alohida e'tibor qaratgan ekanlar, Zaratushtra bu dinning yagona asoschisidir, shuning bilan birga, u ham kohin,

ham zardushtiylarning payg'ambari edi, deb faraz qiladilar.

“Avesto” O'rta Osiyo viloyatlarining qadimgi tarixi, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti va ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim manbadir. “Avesto”ning eng qadimgi hududiy geografik nomlari O'rta Osiyo viloyatlari bilan bog'langan (Yasht kitobi, 10-bob). Ruyxatdagi birinchi mamlakat - “Aryonam Vaychax” yoki “Aryoshayyona”, “Aryonam Vayjo”. U yurtda ko'pdan-ko'p yaylovlarga ega baland tog'lar, keng daryolar va chuqur ko'llar mavjud bo'lgan. Yasht kitobida Iskata, Porutu, Mouru, Gava So'g'da (So'g'd makoni) va Xorazm kabi boshqa mamlakatlar ham tilga olingan.

“Avesto” Videvdat kitobining birinchi bobida sanab o'tilgan quyidagi viloyatlar Yasht kitobidagi mamlakatlar ro'yxatidan ancha farq qiladi: Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Baxdi, Nisayya, Ar'yo, Vaekereta, Urva, Xnanta, Xaytumant, Raga, Chaxro va Varna.

“Avesto”da Xorazm, Marg'iyona, So'g'd, Baqtriya viloyatlari yirik mamlakatlar qatorida tilga olingan. Shuning bilan birga, Aryonam Vayjoni ham keng o'lka sifatida tushunish mumkin. U erda baland tog'lar - Pomir, Hisor, Tangritog', chuqur ko'llar - Kaspiy, Orol, Issiqko'l, keng daryolar - Amudaryo va Sirdaryo joylashgan deb faraz qilinadi.

**Marg'iyona.** Qadimgi yozma manbalarda Mouru, Margush va Margiana nomlari bilan tilga olingan Marv vohasidagi dastlabki yodgorliklar (Yoztepa, Aravali tepa, Ko'hnatpepa va Uchtepa) amerikalik tadqiqotchi R.Pampelli tomonidan aniqlangan.

Yoztepa boshqalariga nisbatan ajralib turadi. Hozirgi paytda manzilgohning 16 ga. dan iborat qismi saqlanib qolgan. Uning bir chetida 1 ga. joyda 8 metr qalinlikdagi tag kursi ustida qo'rg'on (ark) joylashgan. Uning atrofida tarqoq qurilgan uy-joy imoratlari joylashgan bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

**Shimoliy Parfiya.** Kopetdag bilan Qoraqum oralig'idagi qadimdan o'zlashtirilgan o'troq dehqonchilik vohalarida ilk temir davriga oid manzilgohlar tarqalgan. Ularning bir necha turlari ajralib turadi. Yirik hajmdagi arkga ega bo'lgan qadimgi shahar turidagi manzilgohlar. (Elkantepa, Ulug'tepa), o'rtacha hajmdagi arkiga ega bo'lmagan may. 1 ga. dan ortiq bo'lgan manzilgohlar (Yassitepa, Agachlitepa) va kichik manzilgohlar

(kichik qishloqlar may. 1 ga. gacha) (Kraxantepa I,II,III, Elantepa, Ovdantepa).

**Qadimgi Daxiston.** Qadimgi Daxiston Turkmanistonning janubiy-g'arbida Kaspiy dengizining janubi-sharqiy qismida Meshxed-Misrian va Chat tekisliklarida Gurgan, Sumbar, Atrek va Benguvona kabi kichik daryo vohalarida joylashgan qadimgi tarixiy-madaniy viloyat. Antik davri yozma manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra bu o'lka Girkaniya, deb nomlangan. Arxeologiya ma'lumotlarga asosan bu o'lka mil. avv. II ming yillikning oxirlaridan boshlab o'zlashtirila boshlangan. Bu erni o'zlashtirgan aholi tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra girkanlarning ajdodlari bo'lgan. Bu erda 20 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan.

**Shimoliy Baqtriya.** Qadimgi Baqtriya to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoning Vedevdat qismida Baxdi, qadimgi fors manbalarida Baqtrish va yunon-fors mualliflari asarlarida Baktriya nomlari bilan keltirilgan qadimiy o'lka shimolda So'g'd bilan Hisor tog' tizmalari, janubda esa Hindikush tog'lari bilan chegaralangan. G'arbda chagarasi Amudaryo oqimi bo'ylab Murg'ob vahasigacha sharqda esa Pomir tog' tizimlarigacha bo'lgan erlarni ishg'ol qilgan. Qadimgi Baqtriyaning chegarasi O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining janubi hamda Afg'onistonning shimoliy hududiga to'g'ri keladi.

Baqtriyaning bu davrdagi manzilgohlarining tuzilishi va hajmiga ko'ra quyidagi shakllari ajralib turadi. Yirik shahar markazini tashkil etgan manzilgohlar. Ular odatda ikki yoki uch qismdan iborat bo'lib, mudofaa tizimiga ega bo'lgan manzilgohlar (Qiziltepa,) tashqi mudofaa tizimiga ega bo'lgan maydon 5-10 ga. joyni tashkil etuvchi manzilgohlar (Talashkon I, Bandixon II) mudofaa tizimiga ega bo'lgan kichik hajmidagi aloxida vazifalarni bajaruvchi manzilgohlar (Tillatepa, Kuchuktepa). Bu manzilgohlar Baqtriyaning har ikkala qismidagi alohida joylashgan mikro vohalarda joylashgan.

**So'g'd.** So'g'd hududida ilk temir davrining boshlarida o'troq dehqonchilik madaniyati qaror topgan. O'lkaning ilk temir davriga oid o'troq dehqonchilik manzilgohlari dastlab Samarqand va Qashqadaryo vohalari shakllangan. Bu erlardagi Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Podayotoq, Sangirtepa va Erqo'rg'on yodgorliklarining quyi qatlamlari dastlabki aholi tomonidan o'zlashtirilgan va keyingi taraqqiyot bosqichlarida ular murakkablashib borgan. Ular boshqalariga nisbatan arxeologik

jihatdan yaxshi o'rganilgan yodgorliklar hisoblanadi.

***Farg'ona vodiysining ilk temir davri Chust madaniyati.*** Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning yirik tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri hisoblanadi. U Sirdaryoning yuqori oqimi hududida joylashgan bo'lib, janubdan Oloy va Turkiston, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq hamda shimol tomondan Chotqol-Qurama tog'lari bilan o'rab olingan. Bu hudud chorvachilik va o'troq dehqonchilik xo'jaliklarining shakllanishi uchun juda qulay bo'lgan tabiiy-geografik sharoitga ega bo'lgan jihatdan.

Chustliklarda bronzaga ishlov berish, ulardan mehnat qurol-yarog'lar tayyorlash yaxshi rivojlangan. Dalvarzintepa yodgorligidan mil. avv. IX asrga oid temir buyum namunasi topib o'rganilgan. Toshlardan mehnat qurollari yasash o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Dehqonchilikda arpa, bug'doy va boshqa dukkakli o'simliklar etishtirganlar. Bu erda dehqonchilik sug'orishga asoslanmagan. Chorvachilikda qoramol, qo'y, echki boqqanlar. Daryo va ko'l bo'ylarida yashagan xalqlar baliqchilik bilan ham shug'ullanganlar.

***Eylaton madaniyati.*** Chust madaniyatining davomi sifatida Farg'ona vodiysida Eylaton madaniyati (mil. avv. VII-IV asrlar) rivojlanadi. Eylaton madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlariga tarqalib, arxeologik jihatdan qayd etilgan. Eylaton davrida mudofaa devorlari tuzilishi o'zgaradi. Manzilgohlar aniq tuzilishga, ya'ni to'g'ri to'rtburchak shaklini oladi. To'g'ri to'rtburchak burjlar paydo bo'ladi. Manzilgohning maydoni 200 gektardan iborat bo'lib, Qoradaryo bo'yida joylashgan. Ikki qator mudofaa devori bilan o'rab olingan, devorlar kvadrat shaklli burjlar bilan kuchaytirilgan. Manzilgoh ichki (20 ga.) va tashqi qismlaridan tashkil topgan.

***Toshkent vohasida Burgulik madaniyati.*** Toshkent vohasining ilk temir davri moddiy madaniyati Burgulik madaniyati misolida yaxshi o'rganilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki moddiy topilmalar 1940 yili A.I.Terenojkin tomonidan Ohangaron daryosining o'rta oqimida Burguliksoy yoqasidan topib o'rganilgan. Hozirgacha bu madaniyatga oid 20 dan ortiq manzilgohlar va 50 ga yaqin uy-joylar ma'lum. Bu madaniyatning davri A.I.Terenojkindan keyin dastlab X.Duke tomonidan o'z ilmiy

tadqiqotlari natijalariga asosida mil. avv. IX-VII asrlar doirasida belgilangan.

**Ustrushona.** Ustrushona Markaziy Osiyoning muhim tarixiy madaniy viloyati biri. Bu o'lka bo'lgan Ustrushona o'lkasi Farg'onadan janubiy-g'arb So'g'd va Choch oralig'ida joylashgan bo'lib, ilk o'rta asrlar davri yozma manba ma'lumotlarida Ustrushona nomi bilan yuritilgan. U Turkiston tog' tizimidan shimolda Xo'janddan Jizzaxgacha bo'lgan hududlardagi erlarni ishg'ol etadi. O'lkada mil.avv. VII-VI asrlarda dastlabki o'troq dehqonchilik manzilgohlari shakllanadi. Manzilgohlardan qadimgisi va nisbatan yirigi Nurtepa hisoblanadi. Uning umumiy maydoni 18 ga. dan iborat bo'lib, ark va shahriston qismlaridan tashkil topgan.

**Qadimgi ko'chmanchilar.** Chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi qabilalar Avestoda turlar, yunon tarixchilarining asarlarida skiflar va massagetlar ahamoniylar davri yozuvlarida esa ular saklar nomi bilan keltirilgan.

Markaziy Osiyoning dasht va tog'li hududlarida yashagan saklarning yodgorliklari Quyi Zarafshon, Amudaryo, Orol bo'yi, Pomir va Tyan-shan tog'larida topilgan. Ular asosan qabr qo'rg'onlardan iborat. Topilmalar bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

Saklarning qabr-qo'rg'onlaridan ot anjomlari uchraydi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra saklarning xo'jaligida yilqichilik asosiy o'rin tutgan.

Qo'chmanchilarning uylari erto'la va chaylasimon shaklda bo'lgan. Ular chorva izidan doimo ko'chib yurganliklari tufayli doimiy o'troq hayot ular uchun muhim o'rin o'ynamagan. Ko'chmanchi sak qabilalarining qabr qo'rg'onlaridagi moddiy topilmalarga ko'ra ularga mulkiy tengsizlik mavjud bo'lgan. Lekin ularda qachon sinfiy jamiyat paydo bo'lganligi noaniq. Olimlarning fikriga ko'ra, mil. avv. VII-VI asrlarda ko'chmanchilar orasida harbiy-siyosiy qabila uyushmalari mavjud bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi **Xorazm** hududi o'rta Amudaryo oqimidan boshlanib Orol dengizigacha joylashgan erlarni o'z ichiga olgan, **Baqtriya** erlari – bu Afg'onistonning shimoli-sharqi, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo viloyati hisoblangan.

Baqtriya hududiy chegaralari: janubda – Hindiqush tizmasi, shimolda – Hisor tog'lari, sharqda – Pomir, g'arbda – Amudaryoning o'rta oqimi hisoblanadi.

**So'g'diyona** – hozirgi Qashqadaryo, va Zarafshon vohalaridir. So'g'diyonining geografik chegaralari: g'arbda Buxoro vohasidan sharqda Hisor tog'lari bo'ylab, janubda Qashqadaryo va Ko'hitog' oralig'ida, shimolda esa, Nurota tizmalariga borib taqalgan.

**Marg'iyona** – Turkmaniston janubidagi Murg'ob vohasi, **Parfiya** – Turkmanistonning janubi-g'arbi, Eroning shimoli-sharqi. O'rta Osiyo o'troq viloyatlarining qo'shni erlarida ko'chmanchi sak-massaget qabilalari yashagan (Pomir, Tangritog', Janubiy Qozog'iston, Toshkent, Sirdaryo viloyati, quyi Zarafshon, Quyi Amudaryo, Sirdaryo hamda Orol dengizi atroflari).

**Iqtisod va ijtimoiy tuzum.** O'zbekistonning turli viloyatlarida Afrosiyob, Uzunqir, Qiziltepa, Ko'ktepa, Erqo'rg'on kabi dastlabki shaharlar markazlari ravnaq topgan. Ushbu shag'arlarda binokorlik, hunarmandchilik va savdo yuksak darajada rivojlangan.

Surxondaryodagi Qiziltepa qadimgi shahar markazi atrofida to'rtburchak shaklida qurilgan qadimiy uy- qo'rg'onlar koldiqlari topilgan (Qizilchatepa). Ular paxsa devorlar bilan o'ralgan va xom g'ishtlardan qurilgan uy-joy, xo'jalik xonalari, oshxonalardan hamda ichki hovlidan iborat. Paxsa devorlar bilan mustahkamlangan tashqi qismda esa podaxona bo'lgan.

### **O'rta Osiyo hududida vujudga kelgan qadimgi podsholiklar masalasi.**

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududlarida rivoj topgan ilk davlatlarni — podsholiklar tashkil qilgan. Yunon tarixshunoslari asarlarida Baqtriya podshosi Oksiart va Xorazm podshosi Farasmon haqida ma'lumotlar mavjud.

Ushbu davlatlar bir necha viloyatlarni birlashtirgan, shuning uchun ham mil. avv. VII-VI asr davlatchilik tizimiga markaziy va mahalliy boshqaruv xos bo'lgan. Misol uchun, Baqtriya podshosining qarorgohi davlat poytaxti Baqtra shahrida joylashgan, viloyat va tumanlarni mahalliy hokimlar boshqarib turgan. Ammo yozma manbalarda ana shu davrning saroy unvonlari va harbiy-ma'muriy mansablari haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

Mil. avv. 540-330 yillarda O'rta Osiyo **Ahamoniylar daplati** tarkibiga kirgan.

Bu davlatning boshqaruv shakli **cheklanmagan podsho hokimiyati (mutlak. monarxiya)** - dan iborat edi. Oliy hukmdor ahamoniylar sulolasining vakili bo'lgan (Kir II - mil. avv. 558-530 i, Kambiz 530-525 y., Doro I - 522-486 y. va boshqalar). Doro davlatni “xshatra” — “viloyat” tushunchasidan kelib chiqqan “satrapliklar” deb nomlangan alohida ma'muriy o'lkalarga taqsimladi. Mil. avv. 518 yilga kelib, ahamoniylar Hind vodiysidan O'rta er dengizigacha bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatgan.

Gerodot O'rta Osiyo xalqlari haqida bunday xabar qiladi: “Baqtriyaliklardan egllargacha bo'lgan xalqdar 360 talant soliq to'laganlar. Bu – o'n ikkinchi o'lka. (Bir talant 25, 92 kg. kumushdir).

Saklar va kaspiylar 250 talant to'laganlar. Bu – o'n birinchi o'lka. Parfiyaliklar, xorazmliklar, so'g'dlar va ariylar 300 talant to'laganlar. Bu – o'n oltinchi o'lka”.

**Satrapliklarda boshqaruv tizimi.** Har bir ma'muriy o'lka hokimi (qadimgi fors tilida - “xshatrapa- na”, yunoncha - “satrap”) ahamoniylar podshosi farmoniga ko'ra tayinlangan.

Masalan, Baqtriyani idora qilgan satraplar Ahamoniylar sulolasi vakillari (mil.avv.522 yildan boshlab, mil.avv. 423 yilgacha qadimgi fors podsholarining o'g'illari va aka-ukalari) bo'lgan.

Satrap o'z o'lkasida viloyat, tuman hokimlari va qishloq oqsoqollariga tayangan holda boshqaruvni amalga oshirgan. Uning vazifalari satraplikning xavfsizligini ta'minlash, harbiy yurishlar paytida o'lkadan markazga qo'shinlar yuborish, yillik soliqlarni belgilangan turlarda va miqdorda yig'ib olib, markaziy davlat g'aznasiga etkazib berishdan iborat bo'lgan.

Satrapliklarning boshqaruv tashkilotida turli mansab va lavozimlar mavjud edi (devonxona boshlig'i, xazinabon, soliq yig'uvchi, sud ishlarini yurituvchi, xattot-kotib, xo'jalik ishlari boshlig'i). Satraplarning faoliyatini nazorat qiluvchi shaxs - “podshoning ko'zlari va quloqlari” - ayg'oqchi, qadimgi fors bitiklarida “gaushaka” deb atalgan. U satrapdan mustaqil bo'lib, satrapliklarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va aynan satrap faoliyati ahvoli haqida podshoga ma'lumot etkazib turgan.

O'rta Osiyo satrapliklari muayyan miqdorda belgilangan kumush soliqlardan

tashqari qishloq xo'jalik, chorva va hunarmandchilik mahsulotlari shaklida ham o'lpon to'lashga majbur edilar.

Erondagi qadimgi Persepol shahridagi Doro I va Kserks podsholar saroy devorlaridagi bo'rtma rasmlarda turli xalqlarning o'lpon keltirish manzarasi tasvirlangan. Bu rasmlar qadimgi Sharq xalqlarining o'ziga xos qurollari, kiyim boshlari va qiyofasini ko'rsatib turadi. So'g'diylar etti kishidan iborat bo'lib, podshoga idishlar, gazmol, noma'lum hayvon terisi va ikki qo'yni etaklab kelayotgan holatda tasvirlangan. Saklar uzun cho'qqili qalpoqlarda tasvirlanib, kiyim-kechaklarni ko'tarib, otni etaklab bormoqdalar. Baqtriyaliklarning besh vakilining idishlarni va tuyani olib borayotgan, xorazmliklarning dudama xanjar, harbiy bolta, bilaguzuk va otni olib kelayotgan holatlari tasvirlangan.

Bu rasmlarda So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm va saklar o'lkasidan bo'lgan soliq to'lovchilarning ahamoniylar podshosiga turli xil buyumlar (kulolchilik, to'quvchilik, zargarliq harbiy qurollar), qadimgi Sharqda mashhur bo'lgan ot va tuyalarni olib kelayotgan holatlari tasvirlangan. Undan tashqari qadimgi fors yozuvlariga ko'ra, O'rta Osiyo viloyatlaridan Eronga oltin va qimmatbaho toshlar — lojuvard (la'l), firuza olib kelingan.

Soliq yig'ilishi qishloq oqsoqollari, tuman va viloyat hokimlari zimmasiga tushgan. Soliqlar satraplar saroyi g'azna omborxonalarida to'plangan. Satrap o'lka miqyosidagi soliqlarning yig'ib olinishi jarayonini nazorat qilgan. Saroy xazinachisi va hisobchilari tuman va viloyatlardan etkazib berilgan soliqlar turlari va miqdori asosida iqtisodiy-moliyaviy hisobotlar tayyorlaganlar. Ushbu ma'lumotlar markaziy davlat soliq tashkiloti tomonidan rejalashtirilgan muddatda, maxsus aloqa tizimi xizmatchilari – choparlar orqali fors podshosi qarorgohiga jo'natilgan.

Satrapliklar xazinasidan ma'lum miqdorda aynan satrapning xonadonlari, mansabdorlar va harbiylar maosh sifatida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlangan (un, chorva, yog', sabzavot, sharob, pivo va boshqalar).

Zabt etilgan hududlarni idora qilish maqsadida, podsho buyruqlarini joylarga o'z vaqtida etkazish va satrapliklardan turli ma'lumotlarni tezkor olish uchun, ahamoniylar davlatida maxsus aloqa xizmati tashkil qilingan edi.

O'rta er dengizi buyidagi Kichik Osiyoda Efes shahridan boshlangan "Shoh yo'li" qadimgi Fors davlati poytaxtlaridan biri - Suza bilan bog'langan (masofasi 2470 km). Ushbu yo'lining sharqiy tarmoqlari Baqtriya orqali So'g'diyona va Hindistongacha davom etgan.

"Shoh yo'li"da xavfsizlikni ta'minlash uchun harbiy istehkomlar va maxsus maskanlar qoshida oziq-ovqat omborxonalari barpo etilgan edi. Har bir 30 km masofada choparlar uchun dam olish va otlarni almashtirishga imkon yaratilgan. Xizmat safarida davlat ishlarini amalga oshiruvchi mansabdorlar (hisobchilar, harbiylar, tekshirish va nazorat xizmati vakillari) ushbu yulda joylashgan omborxonalardan ozuqa bilan ta'minlangan.

Qadimgi yunon tarixshunosi Ktesiyning xabariga ko'ra, Baqtra shahridan davlat poytaxti Suzaga otlangan amaldor o'z xizmat safari davrida har kuni 1-1,5 kg un, 1 litr sharob yoki pivo hamda ma'lum miqdorda go'sht bilan bepul ta'minlangan.

#### **4-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI YILLARIDA ARXELOGIYA SOHASIDA XORIJ BILAN ILMIY HAMKORLIK MASALASI (2 soat).**

##### ***Reja:***

- 4.1. O'zbekiston arxeologiyasi rivojlanishining yangi bosqichi.
- 4.2. O'zbekiston arxeologiyasining xorij bilan ilmiy hamkorligi: zamonaviy tadqiqotlar va natijalar.

**Tayanch iboralar:** mustaqillik, arxeologiya, xalqaro shartnoma, topilishi, natija, yangi ilmiy malumotlar.

Mustaqillik yillarida nihoyatda faollashgan tadqiqotlar ko'lami va ularning ilmiy samarasi tufayli, O'zbekiston ar-xeologiyasi dunyo ilm-fani darajasiga ko'tarildi. Bunday natija esa o'z navbatida, O'zbekiston arxeologiyasi uchun dunyodagi etakchi arxeologiya markazlari bilan ilmiy hamkorlik o'rnatishga, teng huquqli asosda xalqaro shartnomalar tuzishga zamin yaratdi. Ayni paytda, O'zbekiston hududida - Avstraliya, AQTTT, Xitoy, Germaniya, Italiya, Polsha, Rossiya, Françiya, Yaponiya kabi davlatlarning arxeolog olimlari bilan hamkorlikda, xalqaro miqyosda arxeologik tadqiqotlar olib borilmokda.

O'tgan vaqt mobaynida mahalliy hamda halqaro ekspeditsiyalar tomonidan yurtimizning qadimgi davri tarixiga oid yangi arxeologik va paleoantropologik materiallar qo'lga kiritildi. Xususan, Fergantrop odami qoldiqlarining topilishi va tadqiq etilishi natijasida Markaziy Osiyoning odamzod tomonidan o'zlashtirilishi tarixi 1,5 million yilga qadimiylashdi. Obirahmat odami qoldiqlarining topilishi natijasida, O'zbekiston hozirgi vaqtda ilk zamonaviy odamlar (*Homo sapiens sapiens*) shakllangan hudud sifatida e'tirof etilmoqda. Obirahmat g'orida olib borilgan tadqiqotlar madaniy qatlamlarning aniq ketma-ketligini qayd etdi. Bu erda aniqlangan gominid qoldiqlari O'zbekiston hududida neandertallarning *Homo sapiens* tomonidan evolyutsiyasini kuzatishda muhim topilma bo'lib xizmat qiladi.

Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq, Zirabuloq paleolit manzilgohlarini o'rganilishi jarayonida zamonaviy usullar yordamida topilmalarning aniq texnik-tipologik klassifikatsiyasi ishlab chiqildi, toshga ishlov berishning texnologik va tipologik indeksleri qayd etildi. Tosh qurollarning yangi turlari aniqlandi. Ilk marotaba O'zbekiston paleolitshunosligida xom ashyoning toshga ishlov berish texnikasi rivojidagi o'rni aniqlandi. Farg'ona vodiysi, Qizilqum va Zarafshon vohasida so'nggi paleolit davriga oid yangi yodgorliklarni aniqlanishi bu hududlarda qadimgi davr tarixidagi "oq dog'larni" yo'qolishiga olib keldi. Qizilqum neolit otryadi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida paleolit va neolit davriga oid yangi yodgorliklar aniqlandi. Xususan, Oyoqaketma neolit davri yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda Kaltaminor madaniyatida yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirilishi borasidagi yangi malumotlar qo'lga kiritildi. Bu esa Qizilqum neolit jamoalari, nafaqat ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganliklarini, balki chorvador ham bo'lganliklarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Kaltaminor madaniyatini 3 ming yilga qadimiylashtiruvchi malumotlar ham qo'lga kiritildi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va madaniyatning rivojlanishi hamda ilk shahar va davlat birlashmalarining paydo bo'lishi asosida Turon uqivilizatsiyasining eneolit-ilk temir davrida shakllanishi va yuksalishi jarayonlari o'rganildi.

Bronza davrining ilk bosqichlari borasidagi asosiy materiallar O'zbekiston janubida - Jarqo'ton, Bo'ston yodgorliklaridan olindi. Xususan, Jarqo'ton protoshahar va ilk

davlat birlashmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'zida aks ettiruvchi yodgorlik hisoblanadi.

Samarqand Sug'dida, Chelak shahri yaqinidagi Ko'ktepa yodgorligida zardo'shtiylik ibodatxonasi, saroy va mudofaa tizimlarining qisman ochilishi qadimgi shaharning ichki tuzilishi borasidagi malumotlarni qo'lga kiritish imkonini berdi. Afrosiyob yodgorligida olib borilgan qazishmalar jarayonida esa shaharning tarixini 2750 yilga qadimiylashtiruvchi malumotlar qo'lga kiritildi, janubiy Sug'dda aniqlangan yangi arxeologik materiallar asosida Qarshi va Shahrisabz shaharlari yoshi 2700 yilga teng ekanligi aniqlandi va bu sanalar halqaro miqyosda nishonlandi.

Arxeologik qazishmalar Eski Termizdagi buddaviylik markazi Qoratepada ham davom ettirildi. Malum bo'lishicha, Termita-Termiz Kushonlar davrida O'rta Osiyoda buddaviylikning yirik markazi bo'lgan. Bu erdan topilgan badiiy madaniyat va yozuv namunalari Baqtriya buddaviylik madaniyatini o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Mingtepa yodgorligida (Andijon viloyati) olib borilgan tadqiqotlar esa bu erda ilk temir davriga oid madaniy qatlamlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu erda 150-160 ga maydonni o'rab olgan tashqi mudofaa devori qoldiqlari ham aniqlandi. Mudofaa devorlari to'rtburchak ko'rinishdagi shinaklar bilan taminlangan minoralar orqali mustahkamlangan. Qo'lga kiritilgan materiallar asosida ichki shaharni burchaklaridagi minoralar ikki qavatli qilib qurilganligi asoslandi. Shu bilan birga bu erda ilk bor antropomorf va zoomorf elementlari tushirilgan qizil angob berilgan sopol idishlar qoldiqlari topildi. Ushbu ma'lumotlar B. Matboboevning fikricha, Mingtepani poytaxt maqomiga ega shahar ekanligini (Xitoy manbalarida Ershi) ko'rsatmoqda.

O'zbekiston hududida keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'plab qadimgi va o'rta asrlarga oid shahar va qishloqlarni o'rganilishiga imkon yaratdi. Jumladan, shaharlarning funktsiyasi, ularning morfologiyasi va atrof-dagi qishloqlar hamda dasht aholisi bilan aloqalari har tomonlama o'rganildi. Natijada, O'zbekistonning barcha hududlarida V-XIII asr boshlariga oid shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi kuzatildi. Choch (Toshkent), Farg'ona, Ustrushona, Sug'd va Tohariston o'rta asr shaharlarining tarixiy topografiyasi va rivojlanish bosqichlariga doir

malumotlar to'ldirildi. O'zbekistonning qadimgi me'morlarining shaharsozlik borasidagi echimlari, qadimgi va o'rta asr shaharlaridagi rivojlanish strukturasi ananaviyligi aniqlandi. Bularning barchasi o'rta asr shaharlarining ichki hayoti, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ijtimoiy munosabatlar borasidagi tamoman yangi ma'lumotlar- ni qo'lga kiritish va shu orqali alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini kuzatish imkonini berdi.

Samarqand viloyatidagi Kofirqala yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida Sug'dning ilk o'rta asrlar siyosiy tarixi, ma'muriy boshqaruvi, huquqiy amaliyoti va tashqi aloqalari borasida muhim tarixiy manba-ko'p sonli bullalar qo'lga kitildi. Bullalar - muhr izi yoki yozuv tushirilgan, uilindr yoki aylana ko'rinishda bo'lib, loydan yasalgan. Bullalar orqali xujjatlar (shartnoma, xat, bildi- rishnomalar) huquqiy jihatdan tasdiqlangan yoki muhrlangan. Tovuslar ushlab turgan holatda taxtda o'tirgan Buddha (Amitabxi yoki Avalokiteshvar) tasviri, Rim xudosi Yanusga o'xshash ikki yuzli mabud tasviri aks ettirilgan bullalar o'ziga xos, o'ta noyob hisoblanadi. Ayrim bullalardagi tasvir- larning ildizi ellin madaniyatiga borib taqalsa, ayrimlari- da esa mahalliy qahramonlar tasviri aks ettirilgan.

Iqtisodiy o'sish talablari, madaniy rivojlanish va irrigatsiya tarmoqlarining xususiyatidan kelib chiqqan holda, turli davrlarda aholi turar-joylarining paydo bo'lishi, halqlarning ko'chishi jarayoni bosqichlari kuzatildi. Shu bilan birga, Toshkentdagi Xarashkent, Buxoro vohasidagi Poykent va Markaziy Farg'onaning yirik poytaxt shaharlarining inqirozi sabablari aniqlandi.

Hozirgi Marg'ilon shahri hududida olib borilgan qazishmalar natijasida, 20 ga qamrab olgan qadimgi shahar o'rni aniqlandi. Qo'lga kiritilgan natijalar asosida YuNESKO homiyligida Marg'ilon shahrining 2000 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi.

Shimoliy Farg'ona hududida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar va yozma manbalar tahlili asosida qadimgi Farg'onaning poytaxti - "Fargana" ("Yuan") Eski Axi (Axsiket) yodgorligi o'rnida bo'lgan, degan xulosaga kelindi.

Buxoro Sug'dida joylashgan yirik yodgorliklaridan biri Poykentda arxeologik qazishmalar davom ettirilmoqda. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan va sharqda Xitoy bilan savdo aloqalarini olib borgan, Qora dengizda dengiz faktoriyalari- ga egalik qilgan Poykent yozma manbalarda Bi knyazligi, "savdogarlar shahri" sifatida qayd etilgan. Arxeologik qazishmalar jarayonida arkda zardo'shtiylik ibodatxonasi, jo-me masjidi va minorasi, hukmdor saroyi, xazina, qurol- aslaha saqlanadigan joy va mudofaa devori bo'ylab joylash- gan kazarmalar qoldiqlari ochildi. Birinchi va ikkinchi shahristonda monumental fortifikatsiya tizimi, turar joy- lar majmuasi, temirchilar ustaxonalari, nonvoyxonalar, ta- biblar qabulxonalari joylashgan ko'chalar hamda 4500 ga yaqin noyob Sug'd mis tangalari qo'lga kiritildi.

Buxoro vohasida olib borilgan keng miqyosdagi tadqiqotlardan yana biri Kampirdevor nomi bilan mashhur voha devorini tadqiq etish hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida, devorning 300 km.ga cho'zilganligi va 15 rustoq-tumanni qamrab olganligi aniqlandi. Devor har 8-10 km masofada minora, qalalar, darvozalar va ularning yonida karvonlarni na- zorat qiladigan bojxonalar bilan mustahkamlangan. Voha de- vorining ilk qurilishi V asrga oid bo'lib, u vohani ko'chmanchilardan himoya qilish uchun xizmat qilgan.

Shoshtepada aniqlangan eramizdan avvalgi II asrlarga oid xochsimon shakldagi arxitektura qoldiqlari - qadimgi Toshkent hududida shaharsozlik madaniyatining paydo bo'lishini namoyon etadi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar davomida IX- XII va o'tmishda Ustrushona mamlakatining shimoliy-g'arbiy va g'arbiy sarhadlari hisoblangan Jizzax vohasining eng qadimgi shahar markazlaridan biri Qaliyatpaning ark, shahriston, rabod qismlarida muntazam qazuv tadqiqotlar o'tkazildi. Natijada, qadimgi Jizzax shahri o'rni Qaliyatepada mil. avv. III-II asrlarda shakllanganligi isbotlandi.

Respublika hududining antropogen o'zlashtirilish va rivojlanish dinamikasini o'rganishda O'zbekiston arxeologiya yodgorliklarini tizimlashtirish borasida asosiy vazifa ar- xeologik yodgorliklarni saqlanishini davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan nazoratini amalga oshirish maqsadida yuqori zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda xaritalarini tuzish, rasmga olish, yig'ma topilmalar va yozma

manbalar asosida identifikatsiya qilish muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishdagi maqsad va vazifalar yodgorlik- larni tizimlashgan malumotlar bazasini yaratish, ularning saqlanishi va muhofazasini amalga oshirish bilan birga, shahar va qishloqlar tarixiy topografiyasi, halqlarning migratsiyasi bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlantirish hamda antropogen landshaftning shakllanishi, kengayishi, bazida esa ekologiya va tabiiy muhit ta’sirida o‘zgarish bilan bog‘liq (shahar, qishloq, aholi punktlarining shakllanishi, rivoj- lanishi, inqirozi va x.k.) yangi ilmiy malumotlar qo‘lga kiritish imkonini beradi.

O‘zbek arxeologiyasining hozirgi kundagi bosh ilmiy yo‘nalishi va maqsadi mamlakatimiz hududida shakllangan ko‘hna madaniyatlar tarixining o‘nlab qirralarini tinimsiz tadqiq qilish, O‘zbekiston mustaqilligi bergan cheksiz imko- niyatlar sharofati bilan bu hududda yashayotgan millatlar va elatlarning ota meros, ilmiy, madaniy boyligi bo‘lgan qadimiy tarixning haqqoniy manzarasini qayta, xolis yaratish yo‘lidagi tinimsiz izlanishlardan iboratdir.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

**1-amaliy mashg‘ulot. O‘rta Osiyoning tosh va paleometall davri jamoalarining turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo‘jalik iqtisodiy asoslari, ma‘naviy kechinmalari, madaniy aloqasi va madaniyatlar genezisi (2 soat).**

### **Mashg‘ulotning maqsadi:**

Tinglovchilarda O‘rta Osiyoning eng qadimgi davrlaridagi jamiyat hayoti, ishlab chiqarish jarayonlari, ijtimoiy tuzum shakllari, madaniy taraqqiyot bosqichlari hamda bu jarayonlarning o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish bo‘yicha tarixiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

O‘rta Osiyo hududida insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlari, ularning davriy tasnifi hamda arxeologik tadqiqotlar orqali aniqlangan asosiy yodgorliklar haqida umumiy ma‘lumot.

O‘rta Osiyoda insoniyatning qadimgi davrlardagi hayoti tosh asridan boshlangan bo‘lib, bu davr **paleolit, mezolit** va **neolit** bosqichlariga bo‘linadi. Keyingi bosqichda esa **paleometall davri** – ya‘ni **eneolit (mis-tosh), bronza** va **temir** davrlari ajralib chiqadi.

Hududda topilgan **Selung‘ur, Teshiktosh, Zamonbobo, Machay, Jarqo‘ton, Sapallitepa, Namozgoh, Mo‘lali, Oltintepa** kabi yodgorliklar O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi turmush tarzini o‘rganishda muhim manbalardir.

### **Asosiy qism**

#### **1. Turmush tarzi va xo‘jalik faoliyati**

Tosh davrining ilk bosqichlarida O‘rta Osiyo aholisi ovchilik va termachilik bilan kun kechirgan. Ular yovvoyi hayvonlarni ovlash, yovvoyi o‘simliklarni yig‘ish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirganlar. Mehnat qurollari dastlab tosh, suyak va yog‘ochdan yasalgan.

Vaqt o‘tishi bilan odamlar toshni ishlov berish texnikasini mukammallashtirib, o‘tkir va qulayroq qurollar yasay boshlaganlar. Neolit davriga kelib esa **sopol buyumlar, to‘qimachilik** va **doimiy turar joylar** paydo bo‘lgan. Bu esa ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish jarayonini boshlab bergan.

Paleometall davrida esa **mis, bronza va temir** kabi metallarni eritish, ulardan mehnat qurollari va zeb-ziynat buyumlari tayyorlash keng tarqalgan. Bu davrda chorvachilik va dehqonchilik rivojlanib, insoniyat tarixida ilk shahar madaniyati elementlari shakllana boshlagan.

#### **2. Ijtimoiy tuzum va jamoa hayoti**

Dastlabki odamlar jamoa bo‘lib yashaganlar. Paleolit davrida bu jamoalar **ibtiloiy urug‘ jamoasi** shaklida bo‘lgan. Urug‘ jamoasi doirasida mehnat, oziq-ovqat va mulk birgalikda bo‘linar edi.

Keyinchalik neolit va eneolit davrlariga kelib, **ona urug‘i jamoasi** hukmron bo‘lib, ayol kishi jamoaning markaziy o‘rnini egallagan. Vaqt o‘tishi bilan mehnat taqsimoti chuqurlashib, **ota urug‘i jamoasi** shakllanadi. Bu jarayon ijtimoiy tengsizlikning vujudga kelishiga, ya‘ni boy va kambag‘al qatlamlar paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

Shu davrda jamiyatda mehnat faoliyatiga qarab kasb-korlar (hunarmand, chorvador, dehqon, jangchi) ajralib chiqqan. Bu esa davlatlilik yo‘lidagi dastlabki qadamlardan biri bo‘lgan.

### **3. Ma‘naviy kechinmalar va diniy tasavvurlar**

Qadimgi insonlarning ma‘naviy dunyosi ularning atrof-muhitni tushunish va unga ta‘sir o‘tkazish istagidan kelib chiqqan. Dastlab **animizm** (ruhlar e‘tiqodi), **totemizm** (hayvon yoki o‘simlikka sig‘inish) va **fetisizm** (jismoniy buyumlarga sehrli kuch berish) shakllari keng tarqalgan.

Arxeologik topilmalar — qabr marosimlari, haykalchalar, qoya rasmlari — qadimgi odamlarning o‘limdan keyingi hayot haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Qoya rasmlarida ov manzaralari, hayvonlar va diniy ramzlar tasvirlangan bo‘lib, ular estetik va ma‘naviy dunyoqarashning shakllanayotganidan dalolat beradi.

Bronza davriga kelib, diniy e‘tiqodlar murakkablashib, osmon jismlariga, quyosh va oyga sig‘inish, suv, olov va yer unsurlariga ehtirom bildirish keng yoyilgan.

### **4. Madaniy aloqalar va madaniyatlar genezisi**

O‘rta Osiyo qadimgi davrlarda Sharq sivilizatsiyalarining ajralmas qismi bo‘lgan. Bu hududda joylashgan **Sapallitepa, Jarqo‘ton, Namozgoh, Gonur, Oltintepa** kabi yodgorliklar mahalliy madaniyat bilan Eron, Mesopotamiya, Hind vodiysi va Afg‘oniston madaniyatlari o‘rtasidagi aloqalarni tasdiqlaydi.

Savdo yo‘llari, hunarmandchilik buyumlari, metallurgiya va diniy marosimlar orqali bu madaniyatlar o‘zaro ta‘sirga kirishgan. Natijada O‘rta Osiyo hududida o‘ziga xos, ammo umumsharqiy sivilizatsiyalar bilan bog‘liq **mahalliy madaniyat genezisi** shakllangan.

Ushbu davrda jamiyatning moddiy va ma‘naviy taraqqiyoti kelgusidagi **ilk davlatlar** – qadimgi Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm va Marg‘iyona kabi sivilizatsiyalar uchun zamin yaratgan.

Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar:

- O‘rta Osiyo tosh va paleometall davri insoniyat tarixining eng muhim bosqichlaridan biridir.
- Bu davrda inson mehnat qurollarini takomillashtirgan, ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tgan, ijtimoiy tuzum shakllangan.

- Diniy tasavvurlar va san'at asarlari insonning ma'naviy o'sishini ifodalagan.
- Madaniy aloqalar esa O'rta Osiyoni qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining ajralmas qismiga aylantirgan.

O'rta Osiyo qadimgi jamoalari insoniyat taraqqiyotining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish yo'lida muhim o'rin tutgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asqarov A. *O'rta Osiyo qadimgi madaniyatlari*. – Toshkent, 2019.
2. Berdimurodov A. *O'rta Osiyo arxeologiyasi asoslari*. – Samarqand, 2020.
3. Tolstov S.P. *Drevniy Khorezm*. – Moskva, 1948.
4. Xo'jayev T. *Arxeologiya asoslari*. – Toshkent, 2018.
5. Internet manbalari: [www.archeo.uz](http://www.archeo.uz), [www.history.uz](http://www.history.uz)

## **2-amaliy mashg'ulot. O'rta Osiyo ilk temir davri yodgorliklarining umumiy tasnifi. Asosiy yodgorliklar va ularning moddiy madaniyati (2 soat).**

### **Mashg'ulotning maqsadi:**

Tinglovchilarda O'rta Osiyoda ilk temir davri madaniyatlarining shakllanishi, arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi, ularning moddiy madaniy xususiyatlari hamda hududlar bo'yicha tasnifi haqida puxta bilim va tahliliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Ilk temir davrining davriy chegaralari, O'rta Osiyoda bu davrga xos bo'lgan asosiy tarixiy-madaniy jarayonlar hamda arxeologik madaniyatlarning shakllanishi.

O'rta Osiyoda **ilk temir davri** miloddan avvalgi **IX–IV asrlarni** qamrab oladi. Bu davrda temirdan tayyorlangan mehnat qurollari, qurollar va uy-ro'zg'or buyumlarining keng tarqalishi natijasida xo'jalik, hunarmandchilik va ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar yuz beradi.

Aynan shu davrda qadimgi **Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Farg'ona** va **Marg'iyona** kabi tarixiy-madaniy viloyatlar shakllanadi. Ular keyinchalik O'rta Osiyo sivilizatsiyalarining poydevorini tashkil etadi.

### **Asosiy qism**

#### **1. Ilk temir davri madaniyatlarining umumiy tavsifi va tasnifi**

O'rta Osiyoda ilk temir davri yodgorliklari o'ziga xos tabiiy-geografik va xo'jalik sharoitlariga ko'ra quyidagi asosiy madaniy guruhlarga bo'linadi:

1. **Xorazm madaniyati**
2. **So'g'd (Zarafshon vohasi) madaniyati**
3. **Baqtriya–Marg'iyona madaniyati**
4. **Farg'ona vodiysi madaniyati**
5. **Shimoliy va Sharqiy O'rta Osiyo (Toshkent vohasi, Tyanshan etaklari) madaniyati**

Bu madaniyatlar o'rtasida umumiy jihatlar (dehqonchilik, sug'orish tizimi, metall ishlov berish, kulolchilik) bilan bir qatorda o'ziga xos mahalliy farqlar ham mavjud bo'lgan.

## **2. Xorazm madaniyati**

**Hududi:** Amudaryoning quyi oqimi, hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati.

**Asosiy yodgorliklar:** Ko'zaliqir, Qalaliqir, Topraqqal'a, Ayazqal'a, Qo'yqirilganqal'a.

### **Xususiyatlari:**

- Qadimiy sug'orish tizimlari – ariq va kanallar keng qo'llanilgan.
- Dehqonchilik va chorvachilik asosiy xo'jalik tarmog'ini tashkil etgan.
- Qal'alar va shahar tipidagi manzilgohlar bunyod etilgan.
- Moddiy madaniyatda xom g'ishtdan qurilgan uylar, qo'lda yasalgan sopol buyumlar, bronza va temir qurollar uchraydi.

Xorazm ilk davlatlilik belgilariga ega madaniyat bo'lib, u yerdagi mudofaa inshootlari, zardushtiylik e'tiqodining dastlabki belgilarini ifodalovchi yodgorliklar bunga dalil bo'ladi.

## **3. So'g'd madaniyati**

**Hududi:** Zarafshon vodiysi – hozirgi Samarqand va Navoiy viloyatlari.

**Asosiy yodgorliklar:** Afrasiyob (Samarqand), Yerqo'rg'on (Kattaqo'rg'on), Sangirtepa, Uzunqir.

### **Xususiyatlari:**

- Shaharsozlik madaniyati rivoj topgan.
- Sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik yuqori darajada bo'lgan.
- Sopol buyumlar, metall qurollar, zeb-ziynat buyumlari keng tarqalgan.
- So'g'd aholisi oraliq savdo yo'llarini nazorat qilgan va Markaziy Osiyo bilan Eron o'rtasida madaniy aloqalar o'rnatgan.

So'g'd madaniyati O'rta Osiyo madaniyatining keyingi davrlarida ham yetakchi o'rin tutgan.

## **4. Baqtriya–Marg'iyona madaniyati**

**Hududi:** Janubiy Turkmaniston, Afg'oniston shimoli, Surxon vohasi.

**Asosiy yodgorliklar:** Oltintepa, Gonurtepa, Dashtli, Qiziltepa, Bolaliktepa.

### **Xususiyatlari:**

- Yirik shahar markazlari paydo bo'lgan, murakkab me'moriy inshootlar mavjud.
- Zardushtiylik diniga oid dastlabki ibodatxonalar va otashkadalarning topilishi e'tiborga molik.
- Qadimgi metallurgiya, zargarlik va sopol buyumlar tayyorlash keng rivojlangan.
- So'nggi bronza davridan temir davriga o'tish jarayoni aynan shu hududda eng faol kechgan.

Baqtriya madaniyati o'zining boy moddiy va ma'naviy merosi bilan Sharq sivilizatsiyalari tizimida alohida o'rin tutadi.

## **5. Farg'ona vodiysi madaniyati**

**Hududi:** Farg'ona vodiysi – hozirgi O'zbekistonning sharqiy qismi.

**Asosiy yodgorliklar:** Chust, Dalvarzin, Eylaton, Xonobod, Ashqalatepa.

### **Xususiyatlari:**

- Temirdan tayyorlangan qurollar, pichoqlar, nayzalar, kamon uchlari topilgan.
- Kulolchilik buyumlari yuqori sifatli va bezakli bo'lgan.
- Qabr marosimlarida jamiyatdagi tabaqalanish belgilarini ko'rish mumkin.
- Farg'ona vodiysi aholisi qo'shniçilik madaniyatlari bilan faol iqtisodiy-madaniy aloqalarda bo'lgan.

Farg'ona madaniyati O'rta Osiyoda ilk temir davrida shakllangan eng mustaqil va rivojlangan mahalliy madaniy o'choqlardan biridir.

### **6. Toshkent vohasi va Sharqiy O'rta Osiyo madaniyati**

**Asosiy yodgorliklar:** Shoshtepa, Qovunchitepa, Qorasu, Zangiota.

#### **Xususiyatlari:**

- Arxeologik topilmalar orasida sopol idishlar, temir qurollar, ot egar-jabduqlari topilgan.
- Chorvachilik, ayniqsa ot boqish va savdo-sotiq rivojlangan.
- Me'moriy inshootlar mustahkam mudofaa devorlari bilan ajralib turgan.

Bu hudud madaniyati Sharqiy Turkiston va Dashti Qipchoq madaniyatlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan.

### **7. Moddiy madaniyatning umumiy xususiyatlari**

O'rta Osiyo ilk temir davri yodgorliklarida quyidagi umumiy belgilar kuzatiladi:

- Temirdan tayyorlangan qurollar va mehnat asboblari keng tarqalgan;
- Sopol buyumlar ko'pincha qo'lda yasalgan, ba'zilar kulolchilik charxida ishlangan;
- Uy-joylar xom g'ishtdan, ba'zida tosh poydevor ustiga qurilgan;
- Sug'orish tizimlari kengaygan, dehqonchilik asosiy xo'jalik sohasiga aylangan;
- Diniy va marosimiy hayotda zardushtiylikning dastlabki unsurlari paydo bo'lgan;
- Ijtimoiy tabaqalanish kuchaygan, ilk davlatlilik shakllari yuzaga kelgan.

Bu xususiyatlar O'rta Osiyoda yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat poydevorining shakllanganidan dalolat beradi.

Mavzu bo'yicha umumiy xulosalar:

- O'rta Osiyo ilk temir davri — insoniyat tarixida yangi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar davridir.
- Temirning keng ishlatilishi mehnat unumdorligini oshirib, ishlab chiqarish xo'jaligining rivojlanishiga sabab bo'lgan.
- Har bir mintaqa o'ziga xos madaniy rivoj yo'liga ega bo'lgan, biroq ularning o'zaro aloqalari umumiy sivilizatsion taraqqiyotga xizmat qilgan.
